



# VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2024-yil 12-aprel, №15 (3077)



4-5 KOMANDIRNING  
MAHORATI

8-9 "OQ KUNLARNI IZLAB"

14 "UXLAGANLARNI AGAR  
QODIR ESAK, UYG'OTAMIZ"

17 RASSOMLIKDAN  
QAHRAMONLIK SARI

## AMIR TEMUR

## TAVALLUDINING 688 YILLIGI



IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

**BIZ**  
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz  
t.me/mv\_vatanparvar\_uz

t.me/mudofaavazirligi  
facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi  
youtube.com/c/uzarmiya

# VATAN — muqaddas qadriyat

Milliy ma'naviyatimizning tarixiy ildizlarini, ilmiy meroslarini, o'tmish qadriyatlarimiz, madaniy merosimizni keng va har tomonlama o'rganib, keyingi avlodga yetkazish har bir vatanparvar inson oldidagi burchdir. Bu, o'z navbatida, yoshlarda Vatanga nisbatan hurmat, sadoqat, fidokorona xizmat qilish hissining oshishiga zamin bo'lib, erkin fuqarolik jamiyatining shakllanishi uchun mustahkam poydevordir.

Markaziy Osiyo hududi uzoq tarixga ega bo'lib, bu o'lka Eron davlati, Iskandar Zulqarnayn, arab xalifaligi, mo'g'ullar va Chor imperiyasi tomonidan bosib olingan. Kliment Aleksandrskiy, Ksenofont, Strabon, Ptolemey, Gerodot asarlarida qadimgi xalqlarimizdagi turli madaniy-ma'naviy qadriyatlar, xalq qahramonlari: To'maris, Spitamen, Zarina, Shiroq haqidagi ma'lumot va afsonalar keltiriladi.

Jaloliddin Manguberdi jasorati, Amir Temur va Temuriylarning davlat boshqaruvida olib borgan siyosati, ma'rifatparvar va jadidlarimizdan: Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Furqat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va boshqalarning Vatan ozodligi, hurriyati, farovonligi uchun jonfido qilgan ajdodlarimizni xotirlash va qadrlash har birimizning burchimizdir. Vatan ravnaqi yo'lida olib borgan ularning xizmatlari kursant va ofitserlar uchun namunadir.

**"Vatan mening jon-u tanim, sajdagohimdur. U mening to'lin oyim, tinch-omonim, izzatim, sharafim. Ka'bam, qiblam hamda gulistonimdur,** deydi Fitrat. Vatan – ajdodlardan avlodlarga qoladigan ulug' meros. Vatan – otabobalarimizning xoklari mavjud bo'lgan muqaddas zamin. Vatanni sevib ardoqlash iymondandir, Vatani bor odamning qaddi baland, teran maqsadli bo'ladi. Ammo Vatanga xiyonat qilganning mozori omonat bo'ladi. P. Buastning fikriga ko'ra, **"Shunday jinoyat borki, uni oqlab bo'lmaydi, bu Vatanga xiyonatdir"**.

Har bir vatanparvar ofitser va umuman, inson o'z Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishi, uning ichki va tashqi sarhadlarini fidokorona himoya qilishi, tinchligi, osoyishtaligi, yaxlitligi, ravnaqi yo'lida odilona xatti-harakatlarni amalga oshirib, dushmanlar va xoinlar zarbasiga qarshi turishda doimo shay bo'lishi maqsadga muvofiq.

Vatan hissi – shu Vatanning egasi bo'lmish xalqni bilishdan, uning qadriga yetishdan, nimalarga qodir bo'lganini tan olishdan, buyukligini e'tirof etishdan boshlanadi. **Vatan va xalq – egizak. Birini his etish uchun ikkinchisini bilmoq kerak.** O'zbekiston deganda o'zbek xalqini, o'zbek xalqi deganda O'zbekistonni

tushunmoq kerak. Birisiz ikkinchisini his qilish mutlaqo mumkin emas. O'zbeksiz O'zbekistonni, O'zbekistonsiz o'zbekni xayolga ham keltirib bo'lmaydi.

Vatanni sevish, vatanparvar bo'lish, uni asrab, fidoyilik ko'rsatish, sog'inib yashash inson tabiatiga xos tuyg'u va xislatdir. Harbiy xizmatchilarning ma'naviy tarbiyasida yurtimiz va jahon sarkardalari, qahramonlari, olimlar, mashhur davlat rahbarlari va mutafakkirlarning vatanparvarlik haqida bildirgan fikrlari diqqatga sazovor hamda ularga ehtiyoj sezamiz.

**Ziyolilar tomonidan avlodlarga meros qilib qoldirilgan hikmat namunalari:**

1. Inson o'z Vatani uchun o'lishga doim tayyor yurmog'i muhimdir, ammo unga Vatan uchun yashash undan ham muhimroqdir (*Teodor Ruzvelt*).
2. Kimki o'z yurtini sevmasa, u hech kimni seva olmaydi (*Bayron*).
3. Men, balkim, o'z Vatanimni unchalik sevmasman, uni yomon ko'radigan holatlarim ham bordir, ehtimol. Lekin mening Vatanimga nisbatan begonalar shunday munosabatda bo'lsalar, men unga sira chidolmayman (*A. Pushkin*).
4. Ma'rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo'lida qurbon bo'lishga hozir ekanida aks etadi (*G. Gegel*).
5. Vatanparvar odamning boshqalardan farqi shundaki, agar uning o'z Vatanga foydasi tegadigan bo'lsa, butun bashariyat uchun ham qattiq ishlashga tayyorligidir (*N. Dobrolyubov*).
6. Vatan uchun chala ish qilish uning uchun hech nima qilmaslikdir (*M. Robespyer*).
7. Saxovatning eng buyuk jasurliklari Vatanga bo'lgan muhabbat tufayli vujudga keladi (*Jan-Jak Russo*).

Antik davrdan bugungi kungacha **Vatan yo'lida xizmat qilishdek sharafli kasb egalari bo'lmish harbiylar haqida**, davlat tizimi, boshqaruv shakllari, jamiyat va fozil jamiyat, axloq masalalari, qonunlarning ustuvorligi xususida faylasuflar tomonidan ko'plab fikr-mulohazalar bildirilgan. Masalan, o'rta asr arab-musulmon olamining yetakchi allomasi Abu Nasr Forobiy jamiyat a'zolarini bajaradigan vazifalariga ko'ra ham tasniflaydi. Bunda harbiylarni ajratib o'tib, ularni "Ashab al-huruf" deb ataydi va u qo'riqchilarni, xizmatkorlarni nazarda tutadi. Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida oddiy insonlardan to'rais darajasigacha bo'lganlarning barchasini ta'riflash jarayonida axloqqa, tartibga katta urg'u berganini ko'ramiz. U "Fozil jamiyatdagi insonlar o'z kasb-korlari bilan mashg'ul bo'lishlari kerak", deydi.

Abu Nasr Forobiy o'zining qator risolalarida insonning ijtimoiy mohiyati haqida so'z yuritadi. U "Inson tabiati har bir shaxsda turlicha bo'lib, odamlar bir-birlaridan jismoniy qobiliyatidan kelib chiqqan holda farqlanadilar", deydi. Forobiy "Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida" nomli risolasida fozil shahar tabaqalarining ixtisoslari xususida quyidagilarni keltiradi:

1. Olimlar, ularga taalluqli bo'lganlar va muhim ishlarda o'z fikriga ega bo'lganlar.
2. Din ahllari: tafsirchilar, xitob qiluvchi notiqalar, shoirlar, musiqachilar va kotiblar.

3. Turli kasb egalari: hisobchilar, muhandislar, tabiblar, munajjimlar.

4. **Harbiylar: jangchilar, posbonlar, harbiy xizmatchilar.**

5. Moliyachilar: tijoratchilar, dehqonlar, chorvadorlar, kim bo'lishlaridan qat'i nazar, shahardagi mollar oldi-sotdisi bilan muomalada bo'lib, o'z tirikchiliklarini ular orqali yurgizadigan va moliyaviy ishlar bilan shug'ullanadigan har bir kishi.

Bu yerda Forobiy harbiylarga urg'u berib, u Aflotun va Arastu asarlarida keltirilgan yunonlardagi harbiylardan farqli ravishda, ya'ni harbiylarni shaharning to'laqonli aholisi sifatida ko'rgan.

Yunonlarda va Rim imperiyasida esa yollangan jangovar guruhlar va harbiy askarlar mavjud bo'lgan edi. Demak, mutafakkirning fikriga ko'ra, harbiylar davlat tarkibida doimo mavjud bo'lishi kerakligi va barcha kabi uning ajralmas qismi bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. U insonlarning ta'lim olishlarini, kasb-hunar egallashlarini, jamiyatga naflari tegishini, mehnat qilish zarur ekani, jamiyatda intizom bo'lishi kerakligi xususida fikr bildiradi. **"Har bir kishi kasb-korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq-atvor, fazilatlarga ega bo'lmog'i lozim"**, deydi Abu Nasr Forobiy.

Abu Nasr Forobiy tinchlikning qadriga yetish insonga xos xislatligini quyidagi hikmati ila bayon etgan: "Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, shuning uchun ham odamlar insoniyat turkumiga kirgani uchun o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim". Albatta, bugungi tahlikali zamonda, urush va ziddiyatli vaziyatlarda avvalambor harbiylar o'z ko'ksini qalqon qiladi, jonini fido qilgan vatanparvarlar boshqalar uchun o'rmak bo'lmog'i **zarur**. Vatanning tinchligi, osoyishtaligi har bir fuqaroning o'z Vatani sevib, unga fidokorona munosabatda bo'lishi bilan belgilanadi.

Jamiyatdagi tartib-intizom uning axloqiy normalari va shu jamiyatda o'rnatilgan qonun-qoidalar bilan belgilanadi. **Harbiylarning nizom asosida jamiyatda o'zini tutishi, adolatparvarligi, insonparvarligi, muomala madaniyatiga egaligi, ma'naviyatga intiluvchanligi, Vatanga va odamlarga ham tinchlik, ham urush vaqtida sadoqat bilan xizmat qilishi**, insonlar orasida do'stlik o'rnatishi, tabiiy ofatlar bo'lganda xalq dardiga malham bo'lib ko'maklashishi ularning burchi va mas'uliyatlaridandir, shunday jihatlarini o'zida mujassam etgan harbiylarni vatanparvar deb hisoblash mumkin. Ma'naviyati yuksak insonda Vatanga xizmat qilish, uni himoya qilish qudrati yuqori bo'lib, buni u sharafli burch sifatida qabul qiladi. Mustaqillik yillarida Qurolli Kuchlar xizmatchilarining ongi va tafakkurini yuksaltirishda milliy g'oya, qadriyatlarimiz, ajdodlarga bo'lgan chuqur ehtirom kabi qarashlar singdirib borilmoqda.

Vatan o'rmini, ona zamin tuprog'ining o'rmini hech narsa bosa olmaydi. Vatanda istiqomat qilish, uning ravnaqi va osoyishtaligi uchun xizmat qilish ulkan baxt hisoblanadi. Fuzuliyning: **"Mening bitta hayotim bor, bordi-yu, mingta hayotga ega bo'lgan taqdirimda ham, hammasini Vatan uchun sarflagan bo'lardim"**, – degan o'giti har birimiz uchun shior vazifasini bajarishi kerak.

Vatan tuyg'usi bo'lgan kishida vatanparvarlik hissi quyidagilar bilan belgilanadi:

1. O'z tarixi, ajdodlarini bilish, ularga hurmat ko'rsatish va ular bilan faxrlanish.
2. Ajdodlarga munosib bo'lib, ularning ishini davom ettirish.
3. O'z ona tilini bilib, unda ravon va uyalmasdan gapira olish.
4. Urf-odat, an'ana, qadriyatlarini hurmat qilish va keyingi avlodga yetkazish.
5. Vatan uchun qayg'urish.
6. Keyingi avlod vakillarini ham vatanparvarlik va Vatanga fidoyilik ruhida tarbiyalash.
7. Vatan madhiyasi, bayrog'i va ramzlari bilan faxrlanish.



8. Vatanni yaxshi va yomon kunida ham uni ardoqlash.

So'nggi yillarda harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun hujjat topshirayotgan yoshlarning soni keskin ravishda oshib bormoqda. Qurolli Kuchlar faoliyatida olib borilayotgan **adolat, tartib-intizom, axloq masalalarining to'g'ri qo'yilishi, ma'naviy muhitning yaxshilanishi kabi oqilona islohotlar hamda vatanparvar degan nomga sazovor bo'lish yoshlarda faxr-iftixor tuyg'usining shakllanishiga zamin bo'lmoqda.** Demak, yoshlar orasida Vatanni himoya qilish uni ardoqlash va u bilan faxrlanish hissi jamiyat orasida ommalashib borayotgani tahsinga sazovor.

Vatandoshlarimiz orasida ham mardlik, jasorat, fidoyilik, vatanparvarlik ruhini yanada kuchaytirish maqsadida bugungi kunda respublikamizda olib borilayotgan ishlardan biri bu xalq va armiyani bir-biriga yaqinlashtirishdan iborat. Yosh bolalarni bolalik paytlaridan boshlab Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash jamiyatda to'laqonli vatanparvarlarning shakllanishi uchun zamin hisoblanadi. **Respublika bo'ylab olib borilayotgan tadbirlarda harbiylarning jalb qilinishida yosh avlodga harbiy-vatanparvarlik, milliy g'oya va istiqolga sadoqat hislari shakllantirilmog'ida.**

Ajdodlarga munosib avlod bo'lish har birimiz uchun ham qarz, ham farzdir. Imkoniyatlari keng, aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil qilgan, yerosti va usti unsurlari bilan ziynatlangan, **ozod va obod O'zbekiston – ona Vatanni yaxlitligini saqlab qolish va keyingi avlodga yetkazish har bir vatanparvarning vazifasi va burchidir.**

Marziya QARSHIYEVA

Belarus–O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti

Amir Temur tavalludining 688 yilligi



# SOHIBQIRON SIYMOSIGA HURMAT KO'RSATILDI

Amir Temur  
o'zligimizni  
anglash, milliy  
an'ana va  
qadriyatlarimizni  
tiklash  
borasidagi  
ulug'vor ishlarda  
xalqimizga  
ma'naviy kuch  
bag'ishlab  
kelayotgan  
ulug'  
siymolardan  
birdir.



guvoh bo'lmoqdamiz, – deydi Qurolli Kuchlar akademiyasi sikl boshlig'i polkovnik Alisher Husanov. – Yurtimiz va xorijda Temuriylarning dunyo ravnaqiga qo'shgan hissasiga oid ko'plab badiiy, publitsistik asarlar yaratilmoqda, ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Uning zafarli yurishlarida qo'llagan harbiy taktikalari esa dunyo harbiy san'atida o'ziga xos qo'llanma sifatida tatbiq etilmoqda. Bularning bari sohibqiron Amir Temur shaxsiyati va uni ulg'aytirgan zamin, tarixiy shart-sharoitga doir yangi-yangi qirralarni kashf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Marosimdan so'ng barcha davlat va jamoat tashkilotlari vakillari hamda talabalar, litsey va maktab o'quvchilari ishtirokida Temuriylar tarixi davlat muzeyida tadbir tashkil etildi. Unda Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy okrug qo'shinlar qo'mondoni polkovnik Farrux Ziyabayev, Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi raisi Muhammad Ali, Turkiya Respublikasining O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Olgan Bekar va boshqalar so'zga chiqib, sohibqiron nafaqat o'z davridagi eng qudratli davlat asoschisi, ilm-fan, madaniyat



Sohibqiron tavallud topgan kun mamlakatimizda har yili ko'tarinki ruhda nishonlanadi. Bu yil ham ulug' sarkarda tavalludining 688 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar katta xursandchilik bilan o'tkazildi.

An'anaga ko'ra, 9-aprel kuni poytaxtimizning Amir Temur xiyobonida tantanali marosim bo'lib o'tdi. Unda Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalari harbiy xizmatchilari, vazirlik va idoralar, davlat hamda jamoat tashkilotlari vakillari, faxriylar buyuk sarkarda haykali poyiga gullar qo'yib, xotirasiga hurmat ko'rsatishdi.

– Bugun Amir Temur va Temuriylarning milliy davlatchilik, ilm-fan, madaniyat, bunyodkorlik va boshqa sohalardagi ulkan merosini o'rganishga qiziqish jahon miqyosida tobora ortib borayotganiga



va ma'naviyat homiysi, balki Osiyo hamda Yevropa qit'alarida ro'y bergan tarixiy o'zgarishlarga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatib, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan shaxs ekanini ta'kidlashdi.

Tadbirning badiiy qismida O'zbekiston xalq artisti Yodgor Sadiyev tomonidan Amir Temur monologi maromiga yetkazib ijro etildi. "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi o'quvchilari tomonidan harbiy orkestr sadolari ostida ijro etilgan vatanparvarlik mavzusidagi qo'shiqlar esa barchaga bayramona kayfiyat ulashdi.

Sh. EGAMBERDIYEV,  
"Vatanparvar"



# KOMANDIRNING MAHORATI

*askarning  
shijoatida ko'rinadi*

Komandir, o'z navbatida, shaxsiy tarkibning jangovar shayligini kuchaytirish, amaliy va nazariy mashg'ulotlar jarayonini to'g'ri tashkil etish, ularning kuch va qudratini doimiy oshirib borishi lozim. Bunda, albatta, komandir shaxsiy namuna bo'lishi va o'z mahoratini oshirib borishi kerak.



Toshkent harbiy okrugi "Chirchiq" dala-o'quv maydonida harbiy qism komandirlari hamda jangovar tayyorgarlik organi ofitserlari ishtirokida o'quv-uslubiy yig'in bo'lib o'tdi. Mazkur o'quv yig'indan ko'zlangan asosiy maqsad o'tgan 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar tahlili hamda yangi o'quv yili uchun mo'ljallangan rejalar muhokamasidan iborat bo'ldi.

Yig'inning dastlabki kunida Markaziy Osiyo mintaqasi va dunyodagi harbiy-siyosiy vaziyat, Mudofaa vazirligi qo'shinlarida jangovar tayyorgarlik holati, yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish masalalari, jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari davomida harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy barqarorligini ta'minlash maqsadida psixologik kuzatuv ishlarini olib borish, mashg'ulot rahbarining qo'shinlarda komandirlik tayyorgarligini tashkil etish, bo'linmalarda tungi mashg'ulotlarni o'tkazish kabi masalalar ko'rib chiqildi va bu boradagi takliflar tinglandi.

O'quv yig'inda mudofaa vaziri general-leytenant Bahodir Qurbonov ishtirok etib, mamlakatimiz Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan vazifalar ijrosi, Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik darajasini oshirish bo'yicha kelgusi rejalariga to'xtaldi. Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va vazifalarni o'z vaqtida bajarilishi bo'yicha topshiriqlar berdi.


Harbiy qism komandirlari ishtirokidagi yig'in davomida muhandislik, aloqa, quruqlikdagi qo'shinlarni havo hujumidan mudofaa, texnik va moddiy-texnik ta'minot kabi bo'linmalarning vazifasi, jang vaqtida qo'llash kabi



aloqa va himoya vositalari hamda muhandislik anjomlarini tayyorlash kabi mavzular bo'yicha bilim va ko'nikmalarimizni oshirdik. Shuningdek, yig'in davomida amaliy-ko'rgazmali mashg'ulotlar bilan birga mashqlarda bevosita ishtirok etib, qo'yilgan vazifalarni

va voleybol sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazildi.

Ishtirokchilar Zirhli texnikalarni ta'mirlash zavodida bo'lib, u yerda ishlab chiqarish va ta'mirlash jarayonlari bilan yaqindan tanishdi. So'nggi yillarda zavodda bo'lgan o'zgarishlar, ishlab chiqarish va



yo'nalishlarda nazariy va amaliy mashg'ulotlar olib bordi. O'quv nuqtalarida maxsus operatsiya kuchlari va havo-desant bo'linmalarining shaxsiy tarkibi bilan jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini tashkillashtirish borasida qimmatli ma'lumotlar taqdim etildi. Zamonaviy harbiy mojarolarda bo'linmalarni qo'llash bo'yicha qism komandirlari o'zaro fikr almashdi.

– Mazkur o'quv yig'inni o'tkazishdan asosiy maqsad to'plangan tajribalarni yanada mustahkamlash, jangovar harakatlarni tashkillashtirish va ularni zamonaviy sharoitlarda har tomonlama ta'minlash bo'yicha egallagan bilimlarimizni mustahkamlashdan iborat,



Muallif suratga olgan

– deydi mayor Nurali Bo'riboev. – Yig'in davomida taktik saf mashg'ulotlarini tashkillashtirish, shaxsiy tarkibning tayyorgarligi ko'rigini o'tkazish tartibi, avtomobil, zirhli texnika,

amaliy bajardik. Bu yerda orttirgan ko'nikmalarimizni shaxsiy tarkib bilan mashg'ulotlarni tashkillashtirish jarayonlarida qo'llaymiz.

Harbiy okruglar o'rtasida tosh ko'tarish, turnikda tortilish, futbol

xizmat ko'rsatish sifati oshirilganini ko'zdan kechirishdi.

O'quv-uslubiy yig'in qatnashchilari O'zbek milliy akademik drama teatrida bo'lib, madaniy hordiq chiqarishdi.

**Ro'ziqul OCHILOV**





# Merganlar

## TAYYORLASH MARKAZIDA BIR KUN

Mudofaa vazirligi Merganlar tayyorlash markazi respublikamizda yagona bo'lib, o'z faoliyatini boshlaganiga hali ko'p yil bo'lgani yo'q. Ammo qisqa vaqtda bu yerda o'nlab merganlar tayyorlanib, Mudofaa vazirligi va kuch tuzilmalari qo'shinlariga yo'llandi. Markaz joylashgan hududdagi qir-adirlarda kecha-yu kunduz o'q ovozlari aksadosi eshitiladi. Bu ovozlarda bir necha maqsadlarga xizmat qiladigan o'ndan ortiq o'quv nuqtalarida mashqlar davom etayotganidan dalolat beradi.



Ushbu markazga "Mardlik" ordeni sohibi mayor Shahboz Eshonqulov boshchilik qiladi.

Mudofaa vazirligi Merganlar tayyorlash markazining otish tayyorgarligi sikli boshlig'i mayor Farrux Umarov o'rganuvchilarga qat'iy va ishonch bilan uqtiradi: "O'zingni har doim birinchi marta o'q otayotgandek tut. Keyin nafasingni boshqara bil. Natijang shunga bog'liq bo'ladi". Mergan qurolini mahkam tutgan harbiy xizmatchilar uning gaplarini diqqat bilan tinglaydilar. Gohida savol berib, tushunmaganlarini aniqlashtirib oladi. Mayor Umarov merganlar o'rtasida o'tkazilgan bir necha musobaqalar g'olibi, uzoq masofadagi nishonlarni bexato urishda va boshqa yo'nalishlarda o'ziga xos rekordlar o'rnatgan, safdoshlariga hamisha o'rnak bo'lgan

harbiy xizmatchilardan biri. Yoshi juda ulug' bo'lmasada, merganlik saboqlarini olganlar uni ustoz deyishadi.

– Avvalo, aytib o'tishim kerakki, markazimizda o'qishni istagan harbiy xizmatchilar belgilangan tartibda saralanadilar. Birinchi navbatda, chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik, keyin 3 000 metr va 100 metr masofaga yugurish hamda maxsus kuch mashqidan iborat jismoniy tayyorgarlik, otish tayyorgarligi, psixologik test, xotira mashqlari kabi sinov va ko'riklardan o'tadilar, – deydi markazning maxsus-taktik tayyorgarlik sikli boshlig'i mayor SHERALI QIRG'IZBOYEV.

– Agar nomzodlarda merganlik kasbiga nisbatan mehr bo'lmasa, bir so'z bilan aytganda, u fanat bo'lmasa, yuksak mahorat egasi bo'la olmaydi. Qancha shug'ullanmasin qiynaladi. Qurolni o'z tanasining bir a'zosi kabi his qila olmasa qiyin bo'ladi, unga. Merganlardan bosiqlik chidamlilik, har qanday og'ir, noqulay sharoitga tushib qolganda sabrli bo'la olish talab etiladi. Agar shularga rioya qilmadimi, uning o'zi nishonga aylanadi. Tayyorgarlik mashqlarida shu jihatlarda ham inobatga olingan.

Markazimizda tog', cho'l va shahar hududlarida qo'yilgan jangovar topshiriqni to'laqonli



bajara olish ko'nikmasini beradigan barcha sharoitlar yaratilgan. Yo'riqchilarimiz va bu yerda o'qigan harbiy xizmatchilar xalqaro musobaqalarda faol ishtirok etib, yuqori o'rinlarni egallab kelishmoqda. Masalan, o'tgan yili Turkiyada bo'lib o'tgan musobaqalarda bizning yigitlar 5 ta jamoa orasida faxrli ikkinchi o'rinni egalladi. Bu katta yutuq, albatta.

Mudofaa vazirligi Merganlar tayyorlash markaziga mergan mutaxassisligini egallash uchun kelgan harbiy xizmatchilar uch bosqichda saboq olishadi. Dastlabki uch oylik o'quv kursiga saralash sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tganlar qabul qilinsa, keyingi har biri bir oydan bo'lgan bosqich o'quvlariga dastlabki uch oylik kursni "a'lo"ga tugatganlar, "Mergan" hamda "Yo'riqchi mergan" ko'krak nishonlariga

sazovor bo'lganlar qabul qilinadi.

Markazda tahsil oluvchilarga maxsus-taktik tayyorgarlik fanidan niqoblanish qoidalari, shovqinsiz harakatlanish usullari, kuzatuvchanlik talablari, topografik xaritalarni o'qish, xaritasiz mo'ljallanish, magnit azimut bo'yicha harakatlanish kabi yo'nalishlarda ko'p yillik boy tajribaga ega ofitser va serjantlar saboq berishadi. Zamonaviy optik va o'lchov moslamalari bilan jihozlangan mergan qurollaridan yakka va juftlikda otish mashqlarida ulardan aniqlik, tezlik talab etiladi.

Harbiy tibbiy tayyorgarlik ham alohida mashg'ulotlar majmuasini tashkil qilib, bu merganlar faoliyatida o'ta muhim hisoblanadi. Birgina misol, jangovar sharoitda yaralangan safdoshiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, uning jarohatini topish va



Muallif suratga olgan



qon ketishini to'xtatish, shu bilan birga xavfsizlikka rioya qilish, dushmanni chalg'itish, yaradorni jang maydonidan olib chiqish bularning barchasi puxta va chuqur bilim, sabr hamda mustahkam irodani taqozo etadi.

Ruhiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida psixologik zo'riqlashlar, jismoniy yuklamalar vaqtida ularni yengish uslublari ham nazariy, ham amaliy jihatdan ko'rsatilib, bu jarayonlar bevosita o'rganuvchilar ishtirokida o'tkaziladi. Kuchli olov va shovqin, loy hamda toshli to'siqlar, qishda issiq hamda yozda jazirama ob-havo sharoitida niqoblanish va uzoq vaqt nishonni kuzatish, uni urish, bir necha o'n kilometr masofaga

yurish, ekstremal holatlarda yashab qolish kabilar shular jumlasiga kiradi.

Shuningdek, o'quv dasturidan artilleriya va aviatsiya o'tlarini yo'naltirish, yashovchanlik, arifmetika kabi fanlar o'rin olgan bo'lib, bu fanlar uchun ham barcha o'quv qurollari hamda vositalar, amaliyot o'tkaziladigan o'quv nuqtalari muhayyo qilingan.

Xalqaro hamkorlik doirasida muhim qadamlar tashlangan. Bugungi kunda markaz Fransiya, Italiya, Pokiston, Hindiston, Xitoy, Rossiya, Turkmaniston kabi davlatlarning merganlari va shu soha mutaxassislari bilan aloqalar o'rnatishgan, ular bilan hamkorlikda trening va mashg'ulotlar o'tkazib,

musobaqalarda bellashishgan. Fikr almashuvlarda markaz yo'riqchi-mutaxassislari tomonidan dunyoning eng ilg'or tajribalari o'rganilib, tahliliy ravishda o'quv mashqlariga tatbiq etilmoqda. Aytishlaricha, qo'shni mamlakatlar merganlari kelib bu yerda o'z malakalarini oshirib ketishar ekan.

Markaz mutaxassislari va kursantlari 2020-yildan shu kungacha bo'lgan davrda Belarus, Vyetnam, Venesuela, Eron, Turkiya (ikki marta) davlatlarida merganlar o'rtasida o'tkazilgan xalqaro musobaqalarda ishtirok etib, faxrli birinchi va ikkinchi o'rinlarni egallab kelishgan. Kapitan Mansur Shomuratov, III darajali serjantlar Husniddin Mirzamatov,

Lazizbek Davronov, Shohrux Masobirov, Sherali Nazarov, Olim Toshqorayev, Sarvar Qahramonov, Ulug'bek G'afforov, Smatjon Ravshanov, Oybek Kuychiboyev shular jumlasidan.

2022-yil Turkiyada dunyoning 12 davlatidan jami 33 ta jamoa, Turkiyaning o'zidan esa dengiz maxsus kuchlari, quruqlikdagi maxsus kuchlar, maxsus operatsiyalar kuchlari kabi alohida qo'shin turlaridan jami 15 ta jamoa qatnashgan "Eng ilg'or merganlar jamoasi" nomli xalqaro musobaqada O'zbekiston jamoasi faxrli ikkinchi o'rinni egallagan. Ular lazerli masofa o'lchagichdan foydalanmasdan harakatlanayotgan

vertolyot va qayiqdan turib nishonlarni bexato yo'q qilgan. Shuningdek, musobaqa o'tkazilgan hudud butkul notanish, nishonlar va mashqlar haqida to'liq ma'lumotlar bo'lmasligiga qaramay, barcha shartlarni muvaffaqiyatli bajarib, hakamlar olqishiga sazovor bo'lishgan.

- Bu kabi yutuqlarning asosini merganlarimizning mustahkam, metin irodasi, ulkan sabri va soha bilimlarini chuqur o'rganganligida ko'rdim, - deydi o'zi xalqaro musobaqalarning bir necha bor g'olibi bo'lgan markaz boshlig'i mayor Shahboz Eshonqulov.

**Furqat ERGASHEV**

Hind mutafakkiri Rabindranat Tagor "Hayot o'limni hech qachon pisand qilmaydi. O'lim ro'parasida u qahqaha uradi, qo'shiq aytib, raqsga tushadi, quradi, teradi va sevadi. Faqat o'limning o'zini alohida ajratib qarasaq, uning bo'm-bo'shligini ko'rib, xijolat tortamiz" deb yozgan edi.



# "OO KUNLARNI IZLAR"

## YOXUD TARAQQIYPARVAR ADIB SHOKIR SULAYMON HAQIDA



O'z hayotini ana shunday bo'm-bo'sh tarzda yashab o'tishni istamagan Turkiston jaddilarining kenja vakillari ichida Shokir Sulaymon ham bor edi.

Shokir Sulaymon 1900-yilda Qo'qon shahrida tug'ilgan. Uning otasi Sobirxo'ja ilmi insonlardan bo'lib, onasi Tiniqoy ham o'qimishli, oqila ayollardan bo'lganligi ma'lum. Yosh Shokirning birinchi ustozlari otasi Sobirxo'ja bo'lib,

dastlabki ta'limni undan olib, keyingi tahsilni qo'qonlik jaddi muallimi Abduvahob Ibodiyning "Irfon" maktabida davom ettiradi. Abduvahob Ibodiy o'z maktabida ilg'or ta'lim tizimini ishlab chiqqan bo'lib, ushbu maktabdagi tahsil shubhasiz, yosh Shokirning hayotida keyinchalik muhim o'rin tutdi.

Filolog olim Haydarali Uzoqov Shokir Sulaymonning ajdodlari to'g'risida boshqa

bir fikrlarni keltirib o'tgan. Ayniqsa, olim 1994-yilda Shokir Sulaymonning turmush o'rtog'i Zaynab Mirsalimova bilan uchrashib, undan millat oydinining hayoti va faoliyatiga doir qiziq ma'lumotlarni o'quvchilarga taqdim etganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Uning otasi Sobirxo'ja o'ratepalik bo'lib, mudarris Sulaymonxo'janing farzandi edi. Sulaymonxo'ja 1898-yili Qo'qonga ko'chib keladi.

Bo'lajak adib, shoir va nosir Shokir Sulaymon 1912-yildan boshlab Qo'qondagi rus-tuzem maktabida, 1917-yildan esa Orenburg shahridagi Husayniya madrasasida o'qishni davom ettirdi. Husayniya madrasasi 1891-yildan buyon faoliyatini davom ettirib kelayotgan bo'lib, o'z navbatida, tatar taraqqiyparvarlarining harakat markazlaridan biri edi. Bu yerda yosh Shokir Sulaymon jadidchilik g'oyalarning ijtimoiy-siyosiy jihatlari to'g'risida ham keng ma'lumotga ega bo'ladi.

U 1921-yilda ushbu madrasani tamomlab, Qo'qonga qaytib keladi va pedagoglik faoliyatini boshlab yuboradi. Tarixchi Bahrom Irzayevning qayd etishicha, Shokir Sulaymon 1922-yili Qo'qon va Uchko'pri hududlarida to'rt yillik "usuli jadid" maktablarini ochadi hamda shahar taraqqiyparvarlarining yetakchisi Obidjon Mahmudovning uyida Ashurali Zohiriy, Mirzohid Miroqilov, Yunus Og'aliqov, Nosir hoji Ziyoyev, Abdulla Rahmat, Muxtor Muhammadiy yig'in o'tkazib, bir nemis millatiga mansub kishini topib, iqtidorli yoshlarga olmon tilini o'rgatishni tashkil etadi.

Shuningdek, Shokir Sulaymonning taraqqiyparvar shaxs sifatida yetishishida zamondosh millat ziyolilarining

ham o'rni va roli katta bo'lgan. Jumladan, adibning xotini Zaynab Mirsalimova: "Xonadonimizga maslahat va ko'mak uchun u kishining shogirdlari Usmon Nosir, Madamin Davron, Amin Umaryi va boshqalar tez-tez kelib turishardi, - deya xotirlaydi Zaynab opa, - Cho'lpon bilan Botu esa eng yaqin do'stlari edi. Bu ulkan shoirlar bilan tushgan ko'plab suratlari ham bor" deb xotirlagan edi.

Shokir Sulaymon 1922-yilda tuzilgan "Ko'mak" uyushmasining ham faoliyatida faol ishtirok etdi hamda millat boylarini ushbu ezgu ishda faol qatnashishga da'vat qildi, o'zining ko'plab she'r va maqolalarida ushbu tashabbusni olqishladi. Jumladan, u "Turkiston" gazetasining 1923-yil 1-yanvar sonida chop etilgan "Ovro'pada Turkiston o'quvchilari" nomli maqolasida "Chetda o'quvchi bolalarini yo'qlab turg'on boshqa millatlar kabi bizning Turkiston ziyolilari, maorifparvarlari ham o'zlarining "jiyda xaltalari" bilan chetdagi o'quvchilarini yo'qlasalar, yordam etsalar yaxshi bo'lur edi. Yurti, elidan uzoq turg'on o'quvchilar Turkistondan shuni kutarlar. Shunday bo'lsa, istipendiyasiz turg'on yuzlab o'quvchilarimizga bir oz madad bo'lur edi. Yurtidagi kamchiliklarni ko'rib, yuragi achinadurg'on yoshlarimizning kundan kun, yildan yilga ko'payishi lozimdir" deb yozdi. Bundan tashqari, u Moskvadan turib, Turkiston davriy matbuotida "Uchqun" nomli she'rini e'lon qilib, unda muallif Germaniyaga o'qishga yuborilgan o'quvchilarni uchqunga o'xshatadi va bir kun kelib, ular nur bo'lib Vatanga qaytgan holda jaholat, ilmsizlik soyasi ostida zulmatga cho'mgan Turkiston zaminini yoritishga umid bildiradi:

Chetda uchqun, chetda yolqin  
gurkurab kuchli yonar,  
Yong'on o't o'chmas, biroq zo'r  
yoqutliq, shu'la berar.  
Qop-qorong'i tilsimot, yo'lsiz  
yobon sharq ustiga,  
G'arbdagi dard yolqini bir kun  
chiqib uchqun sochar...

Shokir Sulaymon o'z bilimni oshirish maqsadida Moskva davlat universitetining filologiya fakultetida o'qishni davom ettiradi. U tahsil olish bilan birga Moskvada ilm olayotgan turkistonlik yoshlarning muvaffaqiyatlari xususida ham muhim ma'lumotlarni davriy matbuot nashrlariga xatlar orqali ma'lum qilib borgan.

Masalan, u "Moskovda adabiyot to'garagi" nomli xabarida turkistonlik yoshlar tomonidan Moskvada tashkil etilgan adabiyot to'garagi to'g'risida ma'lumot beradi: "Moskovda, o'rta, oliy bilim yurtlarida o'qig'uvchi turkistonlik o'zbek, qirg'iz, qozoq istudentlarining yaqinda adabiyot to'garaklari ochildi. To'garakning tub maqsadi Moskovda o'qig'uvchi Turkiston istudentlarini bir nuqtaga to'plab, maxsus leksiyalar vositasi bilan siyosiy, ilmiy, fanniy kuchlarini o'stirmoq va Turkiston Jumhuriyatining Moskov vakolatxonasi bilan yaqin aloqada bo'lub, Turkiston istudentlarini har yoqdan ta'min etmak va ko'paytirishga tirishmoqdir. To'garakning 1) Maorif va madaniyat, 2) Adabiyot-nashriyot, 3) Moddiy ta'minot bo'limlari bo'lub, prezidiumga Akmal Ikromov, Botu, Shokir Sulaymon, Hanafiy Burnash, Abdulla Qamchinbek o'rtoqlar saylandilar. To'garak jiddiy ishga kirishib, Turkiston o'quvchilarig'a tezlikda yordam qo'lini cho'zar, ishchi-yoshlar bilan juda yaqin aloqada bo'lur".

Alohida qayd etish kerakki, uning ijodiy merosi aynan ana shu talabalik yillarida gurkirab rivojlandi. Jumladan, u "Turkiston", "Farg'ona", "Yangi Farg'ona", "Qizil bayroq" gazetalari hamda "Maorif va o'qitg'uvchi" kabi jurnal sahifalarida o'zining ko'plab maqola va she'rlari bilan ishtirok etdi. Shu bilan birga u "Erk kuylari", "G'alaba marshi",



## Munavvarlar yo'li

"Yangi saroy", "Davri hayqirig'i", "Ikki yo'l", "Saylanma", "O'tganlarni eslaganda", "Surgun Sayfiy" nomli she'riy to'plamlar hamda "Achchiq xotiralar", "Kolxozda", "Jama ham Hamo", "Yosh ixtirochi", "Sayohat", "Hindistonda", "Jem ham Ellen", "Butun dunyoga sayohat", "Yangi turmushda", "Baxtli Halima", "Podachi", "Bizda ham ularda", "Parij bolalari", "Farmuza otasi" kabi nasriy asarlarni ijod etdi. Shokir Sulaymon tarjimon sifatida ham A. Mixaylovning "Spartak", V. Biankning "Bu kimning oyoqlari", "Kakku bolachasi", "Qush qanday sayraydi" va shular kabi ko'plab badiiy asarlarni o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi.

Shokir Sulaymonning Turkiston davriy matbuotidagi maqolalari, ayniqsa o'zining milliy ruhda ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Masalan, uning "Farg'ona" gazetasining 1923-yil 15-aprel sonida chop etilgan "Xalq adabiyoti", xuddi shu gazetaning 1923-yil 24-avgustda e'lon qilingan "Milliy kuy va ashulalarimiz" nomli maqolalari shular jumlasidandir.

Shokir Sulaymon "Xalq adabiyoti" nomli maqolasida o'zbek xalqining jonkuyar folklorshunos muxlisi sifatida namoyon bo'ladi. Muallif ushbu maqolasida adabiyotni 1) Xalq adabiyoti va 2) Qalam adabiyoti kabi ikki qismga bo'lib, ushbu ikki adabiyot turiga o'z ta'riflarini bergan. Shokir Sulaymonning fikricha xalq adabiyoti bu xalqning o'zidan – otadan bolaga, boladan o'g'ilga, og'izdan og'izga, bo'g'umdan bo'g'umga, quloq bilan eshitilib kelib, doim xalqning o'zi bilan birga jonli tarixiy tarjimai holi bo'lib yetib keladigan adabiyotdir. Qadimgi hikoyat – ertak, afsona, topishmoqlar masal va maqollar, ashula va laparlar, bular xalq yo og'iz adabiyotidir, deydi muallif. Qalam adabiyoti esa muharrirlar, shoir va adiblar tarafidan turli ustaliq nasr, nazm bilan yozilg'on teatr-u, ro'mon, qissa, hikoyat va boshqa turli tasviriy majmua asarlardirki, buning ham o'qub foydalanguvchisi yana shu yozg'uvchilar, o'qish va yozishni bilgan savodli kishilar hisoblanadi.

Shokir Sulaymon ushbu maqolasida milliy istiqloq qahramonlari to'g'risida kuylangan noyob xalq og'zaki ijodi bo'lmish she'rlardan ham namunalar keltirgan:

*Bek akamlar soy kechdi omon yor,  
Shohi to'nini yechdi omon yor,  
Din va islom yo'lida omon yor,  
Aziz jonidan kechdi omon yor.*

*Yana:  
Bu tog'larda kim yotgan?  
Askar bolalar yotgan;  
Yonboshiga tosh botub,  
Oxir Xudoga yetgan.  
Voy o'rtoqlar!  
Do'st jo'ralar!*

*Bu dunyoning savdosi  
Hammamizni hayron ayladi.*

Alohida qayd etish kerakki, ushbu maqola yozilgan paytda Turkiston o'lkasida istiqloqchilik harakati ayni avjiga chiqqan, minglab o'zbek

yigitlari qo'llariga qurol olib, mustamlakachi sovet hukumatiga qarshi mardonavor jang olib borayotgan paytlar edi. Shokir Sulaymon esa ushbu maqolasida Turkiston uchun kurashayotgan qo'rboshilarni milliy qahramon sifatida e'tirof etib, ular to'g'risida xalq ichida aytilayotgan, kuylanayotgan she'r va qo'shiqlarni asrab-avaylashga da'vat etdi: "Shuning uchun men Turkiston, ayniqsa Farg'ona yoshlaridan, qalam egalaridan so'rar edim: har qaysingiz yo'qsul elimizning qorong'i, ongsiz, bilimsizligi o'zimizning hammadan ham pastda – tubanligimizni esda tutib, birdan bir elimizning kelgusi bolalariga umrlik bir sovg'a qilishlik niyati ila va chindan xalq adabiyotini yig'ishga uriningiz... Mumkin qadar markazdan borqan va ham hay'atimiz tomonidan yuborilgan va yuboriladurgan o'rtoqlarga berib kerakli haqingizni olishingiz bilan barobar bo'yningizda bor bir xizmatni ado qilg'on hisoblanar edingiz".

Shu bilan birga Shokir Sulaymonning "Farg'ona" gazetasining 1923-yil 24-avgust sonida chop etilgan "Milliy kuy va ashulalarimiz" nomli maqolasi ham uning nechog'liq xalq adabiyotini asrab-avaylash borasida fidokor shaxsiyat bo'lganligini anglatadi. Muallif ushbu maqolasida har bir elning va har bir xalqning yuragidan qaynab chiqqan oh-zorlarini, shodlik va qayg'ularini o'z ohang va ruhiga muvofiq, kuylari, ashulalari va inchunin shu kuylarni, shu ashulalarni xalqning o'zini qilib aytadigan qo'shiqchilari borligini qayd etib, xalqning aksariyati, xususan, omma qismi har vaqt o'z ashulachilari bilan faxrlanib, shularni eshitib, ruhlarini sug'orib, tetiklantirishlarini yozadi.

Afsuski, o'zbek yoshlarini milliy kuy va qo'shiqlarni eshitishdan uzoqlashib ketayotganliklarini Shokir Sulaymon iztirob bilan yozib, "Milliy kuylarimizning qadriga yetmagan, milliy ashulalarimizni lazzat, ingichka tuyg'u va taassurotlariga anglasha olmagan, xalqimiz af'oli qabihalariga qo'shib milliy ashulalarimizga qo'l siltaydurg'on yoshlarimiz ham yo'q emasdir, bordir. Lekin yana shul yoshlarimiz, ulargina emas, turli mamlakat va chet ellarda o'qib yurg'uvchilarimizda ko'p vaqt o'z ashulalarini aytib, bo'lar-bo'lmas g'iringlab yuradirlar. Rus kuylariga muhabbat qo'yub, suyub yurgan va tatarcha "Oliyabonu", "Oq Edilkay", "Mahbus" kuylarin kuylab, jirlab yurgan mening o'zimdagi so'nggi vaqtlarda o'zimizning kuylarimizga, milliy ashulalarimizga borlig'im bilan berilib, bor hasratlarimni, qayg'u alamlarimni, shodlik va o'ynoqi tilaklarimni shundan topadigan bo'ldimki, hozir bilar-bilmas, undan-bundan cho'qilab, sog'inib-sog'inib kuylab yuraman.

Ho'qandda bir necha o'rtoqlarimni, Namanganda Rafiqning "Farg'ona"larini (namanganlik shoir va yozuvchi Rafiq Mo'min nazarda



tutilmoqda – M. Alijonov), Moskovda Muhiddin qorining ashulalarini eshitganda tamom berilib, kuylarimizning nafis ohanglariga erib, qimirlaydirgan edim. Qrimga borganda erka Qrim qizlarining yarim tataracha, yarim usmonlicha (yoqimli ovozlari bilan) aytgan kuylaridan o'zimizning farg'onacha Cho'lponning "Uyqu"si, Rafiqning "Farg'ona"si va shularni aytgan qo'pol tovushim o'zimga tuyuladi. To'g'risi, ruhimga yaxshi oziq bo'ladir, dardlarimni, hasratlarimni yozadir.

Boshqa xalqlarnikiga qaraganda oz bo'lmasa-da, ko'proq bizning ham ota-bobo va eski zamonlardan qolgan ko'pgina kuylarimiz, ashulalarimiz bordirki, bu kunda ularning ko'plari unutilib ketmoqda. Kundan kunga deyarli yangilari chiqmoqdadir. Mutaraqqiy ellarning kuylarining nazarida, eski kuylar juda ahamiyatlik, qiymatlikdir. So'nggi taraqqiy zamonlarda ularning borliq kuylari yig'ilib, notaga olinib, kelgusi dunyoga bisot qilinib, saqlanib kelayotgan bir zamonda Turkistonga maxsus sovuqonlik, ahamiyatsiz qarashimiz bilan eskilarni-da, yangilarni-da unutib, yo'qotib boramiz" deb urg'ulaydi.

Shokir Sulaymonning she'riy merosi ham o'ziga xos dard va millatning achchiq taqdiri bilan uyqashgan edi. Jumladan, uning "To'g'ri emasmu?", "Sharq qizi", "Ochliq halokat qushi" kabi she'rlarida XX asr boshlarida Turkiston xalqining og'ir turmushi, ayanchli iqtisodiy-siyosiy muhitni tasvirlasa, "Yo'lovchi ashulasi", "Dengizda", "Qizlar baxti" she'rlarida esa yuksak va pokiza tuyg'ular tarannum etilgan.

Shokir Sulaymon 1926-yilning avgust oyidan 1929-yilgacha Samarqandda tuzilgan "Qizil qalam" adabiy jamiyatining raisi sifatida faoliyat olib bordi. U ushbu jamiyat ishlarida ishtirok etgan holda, "Qizil qalam" adabiy majmuasini yangidan yangi asarlar bilan boyitishda faollik ko'rsatdi. Jumladan, u adabiy almanax yaratish uchun "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1926-yil 8-dekabr sonida "Butun o'zbek adib



va shoirlariga!" nomli e'lon xabarini chop ettirdi. Shokir Sulaymon ushbu e'lonida Moskov, Leningrad, Berlin, Baku va boshqa shaharlardagi yosh kuchlarni ishga solgan holda, o'zbek adabiyoti maydonida zo'r namoyish qilish tilagidaligini bildirib, almanax uchun yuboriladigan adabiy namunalar uchun "Yuboriladurg'on adabiy parchalar (she'r, sochma, hikoya, doston) bu kungacha matbuotda ko'rilmagan, yozilmag'on yangi narsalar bo'l" ishligini shart qilib qo'yadi.

Afsuski, aksariyat o'zbek ziyolilari qatori Shokir Sulaymon ham qattol tuzumning qonli qilichi ostiga olib kelindi. Iste'dodli shoir, nosir va folklorshunos bo'lmish Shokir Sulaymon 1941-yilning 27-avgustida qamoqqa olindi. U O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-67-moddalari ya'ni "Aksilinqilobiy faoliyat olib boranlikda", Turkiston jadidlarining "Milliy ittihad" maxfiy tashkilotiga a'zolikda,

milliy kuy va qo'shiqlarni targ'ib qilganligi uchun millatchilikda ayblandi. Garchi sovet hukumati 1956-yilda xotini Zaynab Mirsalimovaga eri Shokir Sulaymonning 10 yilga mehnat tuzatish lageriga hukm qilinganligini ma'lum qilgan bo'lsa-da, biroq u 1942-yilning 22-dekabrdayoq shafqatsizlarcha otib tashlangan edi. O'zbek adabiyotining, xususan o'zbek folklorining jonkuyar himoyachisi, tolmas targ'ibotchisi bo'lmish Shokir Sulaymonning tergov bayonnomasiga yozgan so'nggi so'zlari quyidagicha bo'ldi: "Men xoin emasman!". Shokir Sulaymon 1956-yil 27-sentabrda oqlangan.

**Muslimbek ALIJONOV,**  
O'zR VM huzuridagi  
"Qatag'on qurbonlari  
xotirasi" davlat muzeyi  
yetakchi ilmiy xodimi,  
t.f.f.b. (PhD)



# O'ZBEKISTON MADANIYATI TARIXI — QADRIYATLAR BESHIGI

Bugun mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevori barpo etilar ekan, biz hech shubhasiz, bu fenomen hodisa quruq yerda, yo'q joyda yaratilmayotganini anglab yetishimiz lozim. Gap shundan iboratki, O'zbekiston qadim-qadimdan buyuk sivilizatsiyalar, jahon ahamiyatiga ega kashfiyotlar yurti hisoblanadi. Biz bekorga bunday kashfiyotlar yaratgan mutafakkir olimlarimiz bilan faxrlanmaymiz.



Darhaqiqat, ming yillar davomida mamlakatimiz hududida yaratilgan Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari keyinchalik jahon tamadduniga sezilarli hissa qo'shgan va bu hodisa jahon olimlari tomonidan keng e'tirof etilgan. Shu ma'noda bugungi kunda O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni barpo etish maqsadi, jamiyat a'zolarini yaxshilik, ezgulik, insonparvarlik kabi fazilatlar sari yetaklaydigan g'oyalari mavjudligi aslida bizning boy milliy-madaniy merosimiz borligidan darakdir.

**O'zbekistonda yangi jamiyatni barpo etish, eng avvalo, odamlarimizda bugungi murakkab zamonda turli yo'llar bilan kirib kelayotgan yot g'oyalarga qarshi sog'lom ma'naviy immunitetni hamda ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimizga suyanishni talab etadi.**

Mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyev yangi O'zbekistonni barpo etishda ma'naviy immunitetning qanchalar darajada zarur ekanligiga alohida e'tibor berib, quyidagilarni yozadi: *"Bugungi shiddatli, o'ta murakkab zamon shuni ko'rsatmoqdaki, bu borada faqat ta'lim-tarbiya tizimining o'zi mavjud ma'naviy tahdidlarga qarshi turolmaydi. Bu masalaga butun jamiyatning kuch va imkoniyatlarini safarbar etmas ekanmiz, kutilgan natijaga erisholmaymiz. Chunki bugungi kunda bolalarimizni ota-ona, bog'cha, maktab yoki institut emas, aksariyat hollarda qo'lidagi telefon "tarbiyalamoqda". Afsuski, ana shu kichkinagina telefon endi oddiy aloqa vositasi emas, ko'pincha yot mafkurani targ'ib etadigan katta qurolga, zo'ravonlik, yovuzlik "virus"ini tarqatadigan manbaga aylantirmoqda".*

Yuqorida ta'kidlangan yot va yovuz g'oyalardan qutulmasak, insonparvarlik, ezgulik, bunyodkorlik, yuksak axloqiylik kabi g'oyalarni o'z amaliy faoliyatimiz asosi sifatida qabul qilmasak, shubhasiz, mamlakat va millat kelajagiga xiyonat qilgan bo'lamiz. Shuning uchun ham bugungi tarbiya jarayonida ming yillar davomida shakllangan, sayqallangan milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga suyanmas ekanmiz, bu borada sezilarli yutuqqa erishishimiz qiyin.

**Shuning uchun ham mazkur maqolada O'zbekistonning eng qadimgi madaniyati tarixi misolida ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarning bugungi yoshlar ma'naviy olamidagi o'rni haqida ayrim fikrlar bayon etiladi.**

Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, har bir xalqning milliy madaniyati va milliy qadriyatlarini bir-biridan ajralgan holda tasavvur etib bo'lmaydi. Shuningdek, milliy madaniyat avval paydo bo'lganmi yoki milliy qadriyatlar, degan savolga javob berish ham mushkul. Ammo bir narsa aniq: xalq, millat shakllanishi, uning taraqqiyot yo'lida har ikki fenomen hodisadan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatgan birorta omil bo'lmasa kerak.

Endi ana shu masalalarni O'zbekiston madaniyati tarixining eng qadimiy ko'rinishlari misolida ko'rib chiqsak. Ma'lumki, uzoq davom etgan ibtidoiy jamoa tuzumi yoki eng qadimiy, ya'ni arxaik davr insoniyat taraqqiyotidagi dastlabki bosqich bo'lib, ayni shu paytda odamlar jamoa bo'lib yashashga, inson ongi esa kuch, qudrat birlikda ekanini anglashni o'rgana boshladi. Ana shunday murakkab davrda, yashash uchun kurash avj olgan bir paytda madaniyat ravnaqi uchun zarur shart-sharoitlar va zamin yaratila boshlandi.

Ma'lumki, milliy qadriyatlar va milliy madaniyat masalalarini o'rganishda qo'l keladigan eng muhim manbalar ikkita bo'lib, ularning birinchisi arxeologiya bo'lib, uning omillari boshqa manbalar, masalan, yozma manbalarga qaraganda juda qadimiydir. Ularining paydo bo'lishi insonning hayvonot dunyosidan ajralib

chiqa boshlagan davri, ya'ni 2,5–3 million yilga borib taqaladi.

Insoniyat tarixi, uning madaniyatini o'rganishning ikkinchi manbasi yozuv bo'lib, uning paydo bo'lishi miloddan avvalgi IV–III ming yilliklardan iborat. Boshqacha so'z bilan aytganda, eramizning **hozir biz yashab turgan ikki ming yilini ham qo'shsak, unda bugungi dunyoda yashayotgan avlodning ota-bobolari olti ming yillik tarixga, madaniyatga, milliy qadriyatlarga ega ekanligini anglab olish mumkin.**

Biroq bizning tasavvurimizdagi ushbu bir necha ming yillik insoniyat tarixining paydo bo'lishiga nisbatan nihoyatda kichik davrdir. Biz kishilik jamiyati butun tarixini 24 soat, deb faraz qilsak, shundan 23 soat-56 daqiqasi arxaik – yozma manbalarsiz davrga, qolgan 4 daqiqasi esa yozma manbalar tarixi davriga to'g'ri keladi.

Shuning uchun ham tarix, jumladan madaniyat tarixini arxeologiya fanisiz o'rganib bo'lmaydi. Mazkur fan yutuqlari tufayli topilgan mehnat va ov qurollari, uy-anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari kabi ashyoviy dalillar eng qadim kishisining nafasat va diniy qarashlarini bilishga, ular madaniyati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Boshqacha so'z bilan aytganda, odamlar va hayvonlar jasadining qoldiqlari, g'or va yerto'la devorlariga chizilgan surat va turli tasvirlar, uzoq vaqtlar tuproq ostida qolib ketgan moddiy yodgorliklar arxaik davr tarixini o'rganishning muhim manbasi hisoblanadi va shu nuqtayi nazardan ham ularsiz o'tmish madaniyatini o'rganish mumkin emas.

Shu narsaga e'tibor berish lozimki, biz "milliy madaniyatlar", "milliy qadriyatlar" atamalarini ishlatmasak-da, aslida o'rganilayotgan davrda yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyatlar "milliy" so'zini qo'shish unchalik ham to'g'ri kelavermaydi. Bunda ko'proq qadriyatlar va madaniyatlar qaysi millat yoki xalq mulki ekanligini aniqlashda asosan hududiy omildan kelib chiqqan holda tushunish to'g'ri bo'ladi.

Ayni paytda u yoki bu davr madaniyati, qadriyatlari haqida yorqinroq tasavvurga ega bo'lish uchun madaniy qatlamlar haqida bilim ega bo'lishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz. Bunday qatlamlar insoniyatning turmushi, xo'jaligi va ijtimoiy faoliyatining izlari saqlanib qolgan tuproq qatlami sifatida tushuniladi. Ming yillar osha asta-sekin vujudga kelgan bunday madaniy qatlamlar ochiq manzilgohlar, g'or-makon, qishloq va shahar madaniy qoldiqlarining jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq holda joylanishi tufayli yuzaga keladi.

**Markaziy Osiyo mintaqasida hozirga qadar 20 dan ortiq yodgorlik, ya'ni madaniy qatlamlar ochilgan, shuningdek 100 dan ortiq manzilgohda dala-tekshiruv ishi olib borilgan.** Ular O'zbekiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikistonning tog' etaklarida hamda Qizilqum cho'li va Markaziy Farg'onada joylashgan. Keyingi paytlarda Toshkent viloyatining turli hududlarida paleolit (*qadimgi tosh*) davriga oid o'ndan ortiq noyob arxeologik yodgorliklar topilib, tekshirildi.

Yirik arxeolog olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi A. Muhammadjonovning fikricha, ular tog' daralari bo'ylab joylashgan g'or va ungurlar, jarliklar yoqasida barpo etilgan arxaik odamlarning manzilgoh va makonlari: qoyatoshlarga bitilgan petroglif – chizilgan suratlar va boshqalardan iborat bo'lib, ular Toshkent vohasidagina emas, balki butun Markaziy Osiyo hududida yashagan eng qadimiy odam ajdodlari hayotini, uning yaratgan ibtidoiy madaniyatini o'rganishda nodir va nihoyatda qimmatbaho manba hisoblanadi.

Ohangaron yaqinida, Qizilolmasoy yoqasida joylashgan Ko'lbuloq makoni esa yuqorida zikr etilgan yodgorliklar orasidagi eng qadimiysidir. Ushbu **qadimiy makon ming yillar davomida hosil bo'lgan 20 metrlik qalin madaniy qatlamdan iborat bo'lib, undan qayroq va chaqmoq toshlardan yasalgan bir necha yuz mingdan ortiq tosh qurollar, gulxan izlari, hayvon suyaklari topilgan.** Ko'kbuloq makonining yuqori qatlamidan chiqqan ashyolar asosan o'rta tosh davriga mansub bo'lsa, uning ostki qismlaridan kovlab olingan qo'pol tosh qurollar ilk tosh davriga tegishlidir.

Bularga asoslanib yodgorlikning pastki qatlamini arxeologlar ashl davri bilan, ya'ni hozirgi kundan qariyb 200–300 ming yil muqaddam deb sanasalar, geologlar uni hozirgi kundan taxminan 500–700 ming yil avval yotqizilgan, deb hisoblaydilar.

Ko'kbuloq makonidan, shu bilan birga Qizilolmasoy va Qo'shsoyda qayd etilgan ibtidoiy davr ustaxonasidan topilgan nihoyatda boy va turli-tuman tosh qurollar, hayvon suyaklari va boshqa topilmalar Toshkent vohasida yashagan ibtidoiy ovchi va temirchilarning turmush tarzi, yaratgan ilk madaniyati, ayniqsa bu o'lkaning uzoq o'tmishdagi tabiatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aholi bu davrda insoniyat sivilizatsiyasining ilk qadamlarini qo'yayotgan edi. Shu ma'noda, o'rganilayotgan davrda odamlar o'z hayot tarzini asta-sekin izga sola boshladilar, o'zlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib, pirovard natijada eng dastlabki qadriyatlar tizimini shakllantirishga o'tadilar. Biz yuqorida qayd etganimiz kabi, kishilar uchun eng zarur, hayot va turmush tarzini osonlashtirishga, o'zlari uchun qulay imkoniyatlar yaratilishi aslida ilk qadriyatlarining tarkib topishidan bo'lak narsa emasdi.

Uzoq ming yillar davomida **mintaqamizning turli hududlarida shakllangan Joytun, Kaltaminor, Hisor, Nomozgoh, Sarazm, Zamonbobo, Burgunli soy, Sopollitepa, Chust madaniyatlarini zaminida, ma'naviy va moddiy madaniyatlar uyg'unligida qadriyatlar ham shakllana boshladi.** Odamlarni taraqqiyot, bir-birini qo'llab-quvvatlash, o'zaro hamkorlikka yetaklovchi omillar ilk qadriyatlar shaklida yuz bera boshladi.

Eramizdan avvalgi davrning so'nggi bosqichlarida cho'l aholisi orasida o'troqlashuv kuchaydi, cho'l atroflaridagi kichik vohalarda esa sug'orma dehqonchilik madaniyati markazlari yuzaga kela boshladi. Bronza davrida paydo bo'la boshlagan irrigatsiya inshootlari Markaziy Osiyoda ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etishiga olib keldi. Bunga eramizdan avvalgi ikki ming yillikka oid Xorazmda topilgan kanallarning mavjudligi, bularning Farg'onada ham bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlar isbotlab turibdi.

Olimlarning guvohlik berishlaricha, **eramizdan avvalgi ikki ming yillikning oxirlari va birinchi ming yillikning birinchi choragida Markaziy Osiyo hududida qadimiy davlat tuzilmalarining paydo bo'lishi kuzatilgan.** Nihoyatda uzoq va murakkab tarixiy taraqqiyot jarayonining iqtisodiy va madaniy yakuni sifatida Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm kabi qator tarixiy-madaniy birikmalarning markazlari shakllandi, shuningdek ana shu hududlar doirasida baqtriya, so'g'diy va xorazm xalqlari yuzaga kela boshladi.

Biz yuqorida har bir xalqning milliy-madaniy merosi, uning qadriyatlarini mazmun-mohiyatini ochib berishda arxeologik ma'lumotlarning o'zining ahamiyati katta, degan edik. To'g'ri, arxeologik ma'lumotlar u yoki bu xalqning madaniyatining moddiy jihatlari,

shuningdek tashqi belgilar, ayrim xususiyatlarini o'rganishda ularning ma'lum darajada o'zini bor.

Ammo madaniyat, ayniqsa ma'naviy qadriyatlarining haqiqiy mazmunini ochib berishda yozma ma'lumotlar alohida ahamiyatli ekanini unutmashlik muhim. Shu o'rinda, antik davr madaniyati haqida, o'sha davr xalqlarining qadriyatlarini to'g'risida yozma manbalar orqali bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarning qimmatini juda katta ekanligini ta'kidlash lozim. Umuman, antik iborasi lotincha "antikvus" so'zidan olingan bo'lib, "qadimiy" degan ma'noni beradi.

Italiya gumanistlari tomonidan XV asrda fanga olib kiritilgan ushbu ibora asosan qadimgi Grek-Rim madaniyati va san'atini ta'riflash uchun ishlatilgan. Antik davri eramizdan avvalgi 3000-yildan yangi eraning V asrigacha O'rta Yer havzasi hamda Qora dengiz sohillarida mavjud bo'lgan quldorlik davlatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishini ta'riflaydi. Biroq bu bilan antik madaniyati hududiy jihatdan chegaralangan ekan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Chunonchi, Osiyo, Ovro'pa, Afrikaning shimoliy hududlaridagi xalqlar ham o'z madaniyati va san'ati bilan antik ma'naviyatiga aloqador, zero ushbu xalqlar va elatlar uzoq tarixiy davr mobaynida grek va rim san'ati, adabiyoti bilan o'zaro aloqadorlik jarayonini boshdan kechirganlar.

**Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, milliy qadriyatlarini haqidagi eng dastlabki yozma ma'lumotlarni qadimgi Grek va Rim adabiyoti namunalariidan topish mumkin.** Chunonchi, xalq og'zaki ijodi o'sha davr adabiyotida alohida o'rinda ega bo'lgan. Grek va Rim adiblari o'z asarlarida Markaziy Osiyo hududidagi xalqlar tarixi, madaniyati, qadriyatlarini, urf-odatlarini haqida ma'lumotlar qoldirganlar. Bunday asarlarning aksariyat qismi voqealarning asl mohiyatini ochib berar, aniq faktlarga suyanar edi.

Shu o'rinda Gerodotning "Tarix" asariga kirgan "To'maris" va Poliennning "Harbiy hiylalar" kitobidan alohida o'rin egallagan "Shiroq" afsonalarini ta'kidlab o'tish lozim. Markaziy Osiyoning, chunonchi Sirdaryoning antik davrini tasvirlovchi tarixiy asarlar ichida Kvint Kurs Rufning "Aleksandr Makedonskiy tarixi" asari alohida ahamiyatli. Ushbu asarda Markaziy Osiyoning eramizdan avvalgi IV–III asrlariga oid voqealar keng ravishda o'rganilgan, ikki daryo Oksus (*Amu*) va Yaksart (*Sir*) oraliq idagi tarixiy voqealar nihoyatda keng qamrovdagi ifodalangan.

Yuqorida nomlari keltirilgan asarlarda bir tomondan chet ellik bosqinchilarning mamlakatimiz hozirgi hududida amalga oshirgan hunrezliklari, yurtimizdan tashib ketilgan boyliklar, odamlarimizning qul qilib olib ketilishi bilan bog'liq ma'lumotlar berilgan bo'lsa, boshqa tomondan, o'sha asarlarda Vatanimiz hududlarida yashagan xalqlar tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, qadriyatlarini, tabiati ham keng ravishda tahlil qilingan.

Masalan, "Aleksandr Makedonskiy tarixi" asarida yozilishicha, Aleksandr Makedonskiy Marokand shahriga yetib kelib, uning

devorlari baland va mustahkam ekanini ko'radi. Uning ichiga joylashgan qal'a ikkinchi devor bilan o'ralgandi. Aleksandr bu yerda katta qo'shinni qoldirib, o'zi yaqin oradagi qishloqlarni yoqib, talay boshlaydi. Tabiiyki, bunday shafqatsizliklar oqibatida o'lka madaniyati, san'ati vayron qilinadi, ma'naviy-madaniy hayot esa zaiflashadi.

Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyodan shu darajada behisob boyliklarni o'lja qilib oldiki, uning hisobi yo'q edi. Masalan, birgina Suz ibodatxonasidan qimmatbaho tillalar, mo'ynali buyumlar va boshqa boyliklar bilan birga 50 000 talant tilla o'lja qilingan. **Aleksandr qo'shinlari Markaziy Osiyo madaniyati, urf-odatlarini, qadriyatlarini vahshiylarcha munosabatda bo'lgan. Yuksak san'at obidalarini vayron qilgan.**

Agar mamlakatimizning buyuk davlatchilik tarixiga nazar tashlasak, bosqinchilar, eng avvalo, yurtimiz madaniyati, urf-odatlarini yo'q qilishga harakat qilganlar. Buning sababi esa bunday madaniyatning juda yuksalganligi, qadriyatlarining xalqonaligida edi. Bu jihatlar esa aholida o'z yurti, tarixi, madaniyatidan faxr va iftixor hislarini uyg'otardi. Ayni paytda, ba'zi bosqinchilar mamlakatimiz hududida shakllangan madaniyat, qadriyatlar oldida shu darajada esankirab qolar, hatto bizning bu ma'naviy boyliklarimizni o'zlashtirganliklarini o'zlari ham sezmay qoldirdilar.

Masalan, F. Boynazarov o'zining "O'rta Osiyoning antik davri" kitobida grek-makedonlar Aleksandr buyrug'iga asosan so'g'diyonaliklarning urf-odatlarini qabul qiladilar, hattoki uning o'zi ham safarda mahalliy aholi so'g'diyonaliklarning kiyimini kiyib yurgan. Chunki bu kiyimlar juda ko'rkam va ixcham bo'lib, ayniqsa jang paytida qulay edi. Aleksandr grek-makedonlarning kiyimini kiysi yosh bolaga o'xshab, o'z salobatini yo'qotib qo'yardi. Agar sharqliklarning kiyimini kiysi, salobatli va ko'rkam bo'lib, Osiyo shohlaridek ulug'vor qiyofada ko'rinardi.

Mamlakatimiz ma'naviy madaniyati, qadriyatlarini haqida fikr yuritganda I–IV asrlardagi buyuk Kushon podshohlari davridagi o'ziga xos madaniyat to'g'risida gapirmaslik mumkin emas. Kushon podshohlari siyosiy tushuncha bo'lib, bu davr Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Pokiston xalqlari tarixidagina emas, balki butun dunyo madaniyati taraqqiyotida muhim o'rin egallagan. Bu davrda antik madaniyati, tili va dinlari har xil bo'lgan xalqlarning siyosiy jihatdan birlashishi, ayniqsa zarur edi. Turli xalqlar madaniyatining chatishishi natijasida bu yerda o'ziga xos yangi madaniyat shakllandi va rivojlandi. O'z navbatida, keyingi asrlar madaniyatining taraqqiyotiga zamin bo'lib xizmat qilgan.

**O'zbekiston madaniyati va milliy qadriyatlarini haqida gapirganda, hech shubhasiz, Turk hoqonligi haqida fikr bildirmaslik mumkin emas.** Hoqonlik VI asr o'rtalariga kelib tarkib topgan. U haqdagi manbalar VI–VIII asrlarda to'plangan va asosan epigrafik yodgorliklar – Urxundagi runik yozuvlar (*Kultegin yodgorligi*), Xitoy manbasi "Tan xonadoni tarixi" (VII–IX) kabilardan iborat edi.

Turk hoqonligi hududida topilgan yodgorliklar, ayniqsa Kultegin, Bilga hoqon, Ungin, Kuli Chur, Moyun Chur, Tunyuquq bitiglarining ahamiyati kattadir. Ushbu bitiglarda, ayniqsa muhim qadriyat hisoblangan Vatan tuyg'usi nihoyatda yuksak qadrlangan. Jumladan, Bilga hoqon turk xalqining Vatani abadiy bo'lishi uchun kurashdi. Vatanni saqlab qolish faqat hoqonning o'ziga emas, xalqqa ham bog'liqdir. Bilga hoqon xalq o'z hukmdorining yo'l-yo'riqlarini amalga oshirishi lozim, aks holda, uning boshiga ko'p kulfatlar kelishini ta'kid etib, kishi o'ta ishonuvchan bo'lmasligi, boshqalarning gapini mulohaza qilganidan so'ng ish yuritishi kerak, deydi. U odamni ajrata bilmay, to'kis ishonuvchan bo'lsa, fojiaga yo'l ochiladi, darbadarlik shundan boshlanadi, deb: **"Ey turk xalqi, to'kis ishonuvchisan, samimiy, nosamimiyni ajratmaysan, kim qattiq gapirsa, samimiyni ham tanimaysan. O'shandayliging uchun tarbiyat qilgan hoqonningning so'zini olmayin, har qayerga ketding, u yerlarda butunlay g'oyib bo'lding, nom-nishonsiz ketding"**.

Yuqorida ta'kidlangani kabi, buyuk ajdodlarimiz uchun Vatan tuyg'usi eng oliy qadriyat hisoblangan. Shuningdek, **oila, o'zaro hamkorlik, tinchlik, vatanparvarlik, samimiylik kabi qadriyatlar uzoq ming yillar davomida shakllandi, sayqal topib, xalqimizning milliy o'zligini anglashdagi muhim sifatlarga aylandi.** Shu ma'noda ta'kidlash mumkinki, o'zbek madaniyati aslida, bu – qadriyatlardan tarkib topgan fenomen hodisa hisoblanadi.

Bugun mamlakatimizda barpo etilayotgan Yangi O'zbekistonning taqdiri ko'p jihatdan o'sha ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarini asrab-avaylash va ularni yangi mazmun bilan boyitib borishdan iboratdir.

**Abduxalil MAVRULOV,**  
tarix fanlari doktori,  
professor



## AMIR TEMURning

## 313

## SARKARDASI

## PIRMUHAMMAD MIRZO

Umarshayx mirzo ibn Amir Temurning 1379-yilda tavallud topgan to'ng'ich o'g'li. Otasi vafotidan keyin Fors mamlakati hukmdorligi unga topshirilgan. Keyinchalik Sheroz viloyati ham Pirmuhammad tasarrufiga kirgan. Shu sababli uni Pirmuhammad mirzo Sheroziy deb atashgan. 1392-yili sohibqiron ishtirokida Konigilda o'tgan mashhur to'yda mirzo G'iyosuddin tarxonning qizini nikohiga olgan.

Pirmuhammad mirzo Shom va Rum (yetti yillik) harbiy safar qatnashchisi. 1395-yilda Kura daryosi yaqinidagi Yo'lluqluq va Azuqluq mavzesida Temurbek hukmiga binoan mirzo olti ming kishiga bosh bo'lib, Qaro Yusuf turkmanga qarshi yuborilgan. 1396-yilning o'rtalarida Pirmuhammad Abu Sa'id Tabasiyning o'g'li Sulton

Muhammad boshliq xurosoniy va muzaffariylar tomonidan uyushtirilgan fitnani daf etish uchun Sherozdan Yazd sari qo'shin tortgan.

1400-yilda inisi Rustam mirzo bilan birgalikda uyushtirilgan yurishlardan birida Pirmuhammad mirzo o'zini betoblikka solib, jangda qatnashmagani uchun Amir Temur qaroriga ko'ra, hokimlikdan chetlashtirilgan. Anqara muhorabasida markaz (g'o'l)ning ilg'or qismi (hiraful)dan o'rin egallagan. Izmir qal'asining zabt etilishida ishtirok etgan.

Amir Temur vafotidan so'ng u amakisi Shohrux mirzoga ishonch bildirgan.

1410-yilda Pirmuhammad mirzo Kermon viloyatini zabt etish maqsadida lashkar tortib, Duchaha mavzesiga yetgach, jangchilarga dam berish uchun to'xtagan. Mirzoning tarbiyasi va ehtiromi tufayli oddiy tabiblikdan beklilik darajasigacha ko'tarilgan Xoja Husayn sharbatdor ismli ko'mamak bir qancha yomon fe'li kishilar bilan til biriktirib, tunda Pirmuhammad mirzoning chodiriga bostirib kirgan va uni qatl etgan. 31 yoshida halok bo'lgan Pirmuhammad mirzodan ikki o'g'il qolgan: Umarshayx mirzo va Solih mirzo.

## PIRMUHAMMAD FO'LOD

Shohrux mirzoning beklaridan, amiri lashkar. 1397-yilda sohibqiron farmoniga muvofiq, Xuroson, Seiston, Mozandaron, Ray va Feruzko'h Shohrux mirzoga boshqarish uchun berilganda atoqli va nomdor sarkardalar qatori mirzo mulozamatiga tayinlangan. 1403-yilning oxirida Amir Temur buyrug'iga binoan Eronda Omuldan sharqroqda joylashgan Sori shahri hokimi etib belgilangan.

## PIRHOJI ARLOT

Sohibqironning atoqli bahodiri. Amir Tilanchining o'g'li. 1389-yilning yozida hozirgi Qozog'iston shimolida joylashgan Toldiqo'rg'on viloyatidagi Olako'lda Anka To'ra askarlari bilan kechgan to'qnashuvda to'satdan otilgan o'qdan halok bo'lgan.

## PIR HUSAYN BARLOS

1380-yilda o'n to'rt yoshli Mironshoh mirzo oliy farmonga muvofiq, Xuroson hukmdorligiga tayinlanganda uning xizmatiga muqarrar qilingan. 1406-yili amir Ziyrak va amir Umar Tobonning o'ldirilishidan vahimaga tushgan hamda bir guruh beklar safida Abubakr mirzo ibn

Mironshoh mirzodan qochib, Isfahonga kelgan. Shu yilning oktabr oyida Abubakr mirzoga qilingan suiqasddan qatnashgani bois qatl etilgan.

## POYANDA

Oltun baxshining ukasi. Anqara to'qnashuvida Amir Temur qo'mondonligidagi qo'shin markazi (g'o'l)ning so'l qanotidan joy olgan.

## POYANDA SULTON

Jahongir barlosning o'g'li, qo'shin (kichik harbiy bo'lim) boshlig'i. Abubakr mirzo ibn Mironshoh mirzoning mulozimi. 1401-yilda Xalil Sulton mirzo buyrug'iga muvofiq, Sulton Ahmad jaloyimning navkari Qalandarbek boshliq jaloyir el-u hashamini Dajla daryosi yoqasida talab, mol-mulkini o'lja qilgan. 1403-yilda Iroq Arab viloyatlari sohibqiron tomonidan Abubakrga inoyat qilingan kezda Husaynbek barlos, Sevinchakbek, Sulton Sanjar, Davlatshoh inoq va o'zga beklar qatori mirzoga mulozimlikka tayinlangan. Poyanda Sulton shu yili Ardabilda vafot etgan.

## PO'LODBUG'A

"Loy jangi"da amir Husayn ko'rsatmasiga muvofiq, qo'shin ilg'or qismi (hiraful)dan joy olgan. Amir Husayn tarafdori sifatida Temurbekka g'animliq qilgan. 1368-yilda Kobulda Temurbek askarlari tomonidan qo'lga tushirilgan. Keyinchalik Po'lodbug'a Amir Temur xizmatida bo'lgan. Xorazmga qilingan uchinchi yurish vaqtida sohibqiron tomonidan Turkon arlotni ta'qib etishga tayinlangan. Afg'onistondagi Faryob daryosi yaqinida Turkonga yetib, uning boshini tanidan judo qilgan.

## RAMAZONXOJA

Sohibqironning qo'shin (kichik harbiy bo'lim) boshliqlaridan. 1386-1387-yilda Dog'istondagi Tangguy viloyatini talon-toroj qilish, ko'plab asirlar olish amaliyoti qatnashchisi. 1388-yilda Amir Temurga nisbatan dushmanlik yo'lini tanlagan Abu Sa'idni daf etishga yuborilgan Jahonshohbekka ko'mak berish uchun tayinlangan.

## RUSTAM BARLOS

Tag'oybug'a barlosning o'g'li, sohibqironning nomdor beklaridan. Hindiston safarida faollik ko'rsatgan. 1399-yilning yanvar oyida Shohmalikbek va Allohodobek hamkorligida Dehlidan janubi-sharqda joylashgan Mirt qal'asini egallagan. O'z jangchilari bilan Ilyos Avg'oniy va Tahonasariy o'g'li rahnamoligidagi qal'a sardorlarini tutib, gardanidan bog'lab, sohibqiron qarorgohiga keltirgan. Rum (Kichik Osiyo) yurishi qatnashchisi. 1401-yilning 9-iyulida Bag'dodga birinchilardan bo'lib kirgan sarkardalar safida turgan. Anqara jangida qo'shinning Shohrux mirzo va Xalil Sulton mirzo qo'mondonligidagi o'ng qanot (barang'ar)ida o'z qismlari bilan joylashgan. Ma'lum fursat Buxoro shahri dorug'asi vazifasini ado etgan.

## RUSTAM MIRZO

Umarshayx mirzo ibn Amir Temurning ikkinchi o'g'li. 1381-yilda tavallud topgan. 1383-yilning iyunida sohibqiron Darbandi Bokudan Bag'dodgacha, Hamadondan Rungacha bo'lgan Ozarbayjon taxtini Mironshoh mirzoga hukm qilganda, Rustam mirzo amakisining qoshida edi. Yosh mirzo bobosining buyrug'iga muvofiq, Mironshoh va Jahonshoh bahodir rahbarligidagi cherik safida Alanchuq qal'asini musaxxar qilishga tayinlangan.

1395-yili Temur boshliq Movarounnahr qo'shinining Terek daryosi bo'yida To'xtamishxon lashkari bilan kechgan uch kunlik jangda qatnashgan. 1396-yilning iyulida besh yillik yurishdan zafar bilan Samarqandga qaytayotgan Temurbek Varomin mavzesida Rustam mirzoni o'z huzuriga chorlagan va uni Sherozga, valiahd Muhammad Sulton mirzo qoshiga yuborgan.

Panipat jangida Rustam mirzo qo'shinning o'ng qanoti (barang'ar)dan joy olgan va dushmanning markaz (g'o'l)idan fillar yordamida qilingan hamlasini Shayx Nuruddinbek va Shohmalikbek bilan birgalikda qaytargan.

1400-yilning sentabrida Rustam mirzo Fors qo'shini bilan Bihishti va Ayintob qal'alari fathida qatnashgan. Damashq fathida esa Rustam mirzo Temurbek qo'shinining so'l qanoti (juvang'ar)dan o'rin olgan.

1403-yilning qishini Qarobog'da o'tkazayotgan sohibqiron bu nabirasini Huloguxonga taalluqli ulusni tartibga keltirish vazifasiga tayinlangan.

1410-yilda inisi Iskandar mirzo bilan ittifoqlikda og'asi Pirmuhammad mirzoga qarshi qilgan jangda mag'lubiyatga uchrab, Qaro Yusuf turkman huzuriga panoh izlab borgan. 1412-yilning aprel oyida Rustam mirzo Shohrux mirzo saroyiga kelgan. 1414-yilda qo'lga olingan Iskandar mirzo Shohrux qoshiga keltirilgach, uning tasarrufidagi Iroq va Fors mulki qatori Iskandar mirzo ham Rustam mirzo ixtiyoriga topshirilgan. Hokimlik yo'lida ukasini asosiy g'ovlardan biri deb bilgan Rustam mirzo Iskandar mirzoning ikki ko'ziga mil tortib, ko'r qilgan. 1415-yilning 9-iyunida Iskandar mirzoning tug'ishgan inisi Boyqaro mirzo Sherozni egallaydi. Ushbu xabarni eshitgan Rustam mirzo fitnaning bosh sababchisi Iskandar mirzoni qatl qildirgan.

Rustam mirzo 1415-1424-yillarda Iroq va Fors mamlakatlarini boshqargan. 1424-yilda Isfahonda vafot etgan Rustam mirzodan Usmon Ali mirzo va Sulton Ali mirzo ismli ikki o'g'li qolgan.

**Hamidulla DADABOYEV,**  
**Mudofaa vazirligi huzuridagi**  
**Jamoatchilik kengashi**  
**a'zosi, professor**



# Dramatik asarlarda Amir Temur siymosi



Markazlashgan davlat asoschisi, buyuk sarkarda, Uyg'onish davrining asoschisi Amir Temur to'g'risida yozilgan badiiy asarlarni qayta-qayta mutolaa qilgan ekanmiz, ko'z o'ngimizda shonli tarix lavhalarining eng yorqin siymosi, ilm-urfon homiysi, adolat va harbiy mahorat sohibi gavdalanadi. O'zbek adabiyotida sohibqiron hayoti va serqirra faoliyati aks etgan badiiy asarlar – hikoya, qissa, doston, roman, drama va manzumalar yosh temurshunoslar uchun bobomiz ma'naviy olamini kashf etish, qalb kechinmalarini tadqiq etishda muhim manbadir.

Xususan, istiqloq yillarida o'zbek adabiyotining tarixiy dramalarda Amir Temur siymosining gavdalanishi kitobxonni o'sha davr muhitiga yaqinlashtirib, sohibqironning o'y-xayollari, ruhiyati, shaxs sifatidagi fazilatlarini-yu o'z nazdidagi "xato"larini aks ettiradi. A. Oripov, M. Jalil, O. Yoqubov, T. Mirzo kabi iste'dod egalarining dramalarida ana shunday yorqin shaxs siymosi yoritiladi.

Tariximizning saboq olgulik sahifalarini yuksak iftixor va ehtiromlar bilan qalamga olib, o'quvchi shuuri va hissiyotiga ta'sir etadigan darajadagi "Sohibqiron" she'riy dramasi Abdulla Oripovning istiqloq yillari subhida yaratilganidir. Sevimli adibimiz A. Oripov Amir Temur obrazini, avvalo, oddiy insonlar singari bir inson sifatida ijobiy fazilatlarini ochib berishni niyat qilib, hayot va inson haqidagi mushohadalari, sa'y-harakatlari qurshovida tasvirlaydi. Shuningdek, muallif Amir Temurni bir vaqtning o'zida g'amxo'r, oliyjanob, shafqatli va marhamatli bo'lish bilan birga talabchan, adolatparvar va qattiqqo'l shaxs sifatida ifodalaydi.

Amir Temurning dramada mehnat ahliga, askarlariga, san'at ahli, farzand va nabiralariga bo'lgan munosabati yorqin dalillar bilan ko'rsatib berilgan. Dramaning birinchi sahnasida A. Temur va sartarosh suhbatidayoq bunga amin bo'la boshlaydi kishi. Dramaturg podshohning oddiy lavozim egasiga qilgan do'stona munosabatini nozik bo'yoqlarda chizib bera olgan.

*"Temur: "Har qandayin bandaga ham kerakdir sirdosh, Senga ko'ngil ochsam bo'lar..." Sartarosh: "Qulluq, hazratim".*

A. Oripov voqealar rivojini amir Husayn bilan bo'lgan suhbatga ko'chirar ekan, ayni paytda qahramonning bir-biriga zid ruhiy holatini tasvirlab beradi. Birida yumshoq muomala qilgan Temur amir Husaynning qabihliklarini ayovsiz fosh etuvchi ohang bilan zidlanadi. Asarda tasvirlanganidek, Sirdaryo bo'yidagi Jetega qarshi bo'lib o'tgan jang yodga olinadi. Amir Temur tilidan keltirilgan misralarda Husayn jang mag'lubiyatiga sabab bo'lgan shaxs sifatida qoralanadi:

*"Lashkarini siylamagan sen – xasis amir Ust-boshi ho'l holdan toygan sening lashkaring Och-u nahor bo'lgani-chun ortga chekindi".*

Lashkar va sarkardalik to'g'risidagi fikrlarning hayot haqiqatiga mosligini "Temur tuzuklari"da keltirilgan fikrlar bilan asoslash mumkin.

*"Yaxshi lashkarboshi o'zini va qo'l ostidagi to'qqiz sipohiy favjini bir tanadek ko'rsin, ularni shu yaxlit tananing qo'li, oyog'i, boshi, ko'kragi va boshqa a'zolaridek ishlatib kurashuvchi bir pahlavondek hisoblasin..."*

Muallif ayni shu o'rinda Amir Husayn mag'lubiyatini sohibqiron tilidan yetarli harbiy bilim va tajribaning yetishmasligi bilan asoslab, yoshlarni ilm olishga, kitob o'qib, ilmini boyitishga chorlaydi.

Temur (Amir Husaynga):

*"Umringda hech kitob ko'rmay ulg'aygan eding, Shu sababdan gaplaringda mantiq yo'q, amir".*

deya xitob qiladi. Jangdagi mag'lubiyatning asl sababini jang paytida Temurbek va amir Husayn tarafdorlari o'rtasida paydo bo'lgan nifoqdir, deya izohlaydi muallif.

Zero "Amir Temurning daho darajasidagi harbiy san'ati haqida hech kim uning o'zichalik aniq va to'liq tasavvur berolmaydi. U ikki yuz ming kishilik ulkan lashkarni xuddi o'z tanasidagi a'zolarini kurashda yaxshi ishlata oladigan mohir pahlavondek ishlata olgan va buni qo'l ostidagi lashkarboshilarga, o'z avlodlari va vorislariga obrazli tafakkur yordamida o'rgatgan".

Abdulla Oripov dramaning birinchi sahnasida Amir Temur, Mir Said Baraka hamda amir Husayn o'rtasida kechgan suhbat falsafiy mazmuni bilan sohibqiron siyosatining "kuch – birlik – adolat" tamoyiliga asoslanishini yodga soladi.

Kitobxon asarni o'qish jarayonida bosh qahramonning bir necha o'ziga xos qirralarini kashf etib boraveradi. Endi uni nafaqat adolatli, talabchan podshoh sifatida, balki mehribon ota, g'amxo'r bobo, adabiyot va san'atni teran anglovchi va yuksak qadrllovchi noyob did sohibi sifatida ko'ra boshlaydi. Amir Temur o'zidan keyin farzandlarini xuddi o'ziday yurtini boshqarishini xohlaydi va ularning zukkoligini ham tekshiradi. Amir Temurning nabirasi Ulug'bek Mirzo juda ham ziyar bo'lib, hatto shatranj o'yinida Alouddinni yengadi. Buni eshitgan Amir o'zidan keyin yurt tashvishlari borasida xotirjam bo'lishi kerakligini anglaydi.

Amir Temur:

*"Farzandlarim, bir gapimni aslo unutmang: Tinchlik bilan hal bo'lsa qar biror muammo Hech kimsaga o'zingizcha qurol ko'tarmang. Birorta shoh o'z eliga o'tkazsa zulm, Adolatning qilichini baland ko'tarib, Yanching unil!*

Ushbu satrlar sohibqiron siyosatining adolat mezonlariga qurilganidan sado berib turadi.

Bu mezon nafaqat davlat boshqaruvida, balki oilada, ota va farzand munosabatlarida ham o'z ifodasini topgan. Amir Temur o'g'li Mironshohni sarxushlikda keliniga qo'l ko'targani uchun 40 kun zindonband qilgani uning ayollarga bo'lgan iltifoti, ehtiromi va hurmati yuksak darajada ekanini yozuvchi mahorati bilan yoritib bergan.

Asarni mutolaa qilish jarayonida yana shunga amin bo'lamizki, ot surib dunyoning yarmini zabt etgan jahongir ham ortga nazar solib, o'z faoliyati haqida mushohada yuritib, o'zini o'zi taftish etadi. Aql ila shamshirdan foydalanish orqali ma'rifat tarqatadi.

Amir Temur siymosining ma'naviy-ma'rifiy qirrasini, adolatparvar siyosatini ifoda etadigan yana bir dramatik asar sevimli adibimiz Odil Yoqubov qalamiga mansub "Avlodlarga vasiyat" dramasi. Asar markazida umr poyonida ham mamlakat yaxlitligi va taqdiri uchun tinimsiz qayg'uradigan sohibqiron Amir Temur siymosi tasvirlangan. Drama



sohibqironning Suluvko'z ismli suyukli ayolining o'limidan azoblanayotgan tasviri bilan boshlanadi. Voqealar rivoji Samarqand, Usmonlilar saltanati va O'trorda bo'lib o'tadi.

Asar voqealari bilan tanishar ekansiz, Temur va Boyazid suhbatiga alohida sayqal berilgan, unda Boyazid yutqazganiga qaramay, kekkaygan, sohibqiron esa samimiy gavdalanadi. Zotan, xizmatkorlar va saroybonlar Temurga "Janobi oliylari", "Egam" deb murojaat qilganida, u oddiy "qul" ekanini bot-bot takrorlagan. Tarixdan ma'lumki, qaysi shoh bo'lmasin, bosib olgan davlatining haramidagi ayollarni o'zining haramiga qo'shib olgan. Biroq sohibqiron bunday holat kuzatilmagan bo'lib, Boyazid mag'lubiyatidan keyin uning haramidagi ayollarga turmush qurishiga ruxsat beradi. Yuqorida, "Sohibqiron" dramasi voqealarida ayollarga bo'lgan munosabat, "Avlodlarga vasiyat" dramasi ham mantiqiy davom etganiga amin bo'lasiz.

Sohibqironning Movarounnahr va Xurosonda markazlashgan davlatini barpo etishi, feodal tarqoqlik hamda ichki nizolarga barham berishi, davlat boshqaruvi tizimini ishlab chiqishda adolat tamoyillariga tayanishi, o'g'il-nevaralariga o'g'it berish orqali uning xarakterini ochib bera olgan. Ushbu dramada Amir Temur tilidan aytilgan davlatning barqarorligiga raxna soluvchi uch ulkan xatar: noahillik, jaholat, tarafkashlikdan saqlanishga da'vat asar voqealari davomida qizil ip bo'lib o'tadi.

Sohibqiron drama oxirida betob, ammo shu holda ham mamlakat ravnaqi va xalq tinchligiga raxna solgan Chingizxon, To'xtamishxon, Sulton Boyazid kabi dunyo so'ragan podshohlar bilan xayollarida, tushlarida suhbat qurishi yana bir yuksak xislat bo'lgan vatanparvarlikning behadligidan dalolat beradi.

Dramaturglar ko'plab tarixiy manbalarga tayanib, Amir Temur obrazini yaratgan bo'lsa-da, bu obrazga yondashuv har bir davrda o'ziga xos kechdi. Tarixiy shaxsga bo'lgan munosabatlar adabiy-siyosiy talablarga, tuzumlarining ehtiyojlari va ijod ahlining imkonlariga qarab o'zgarib turadi. Lekin, shunday bo'lishidan qat'i nazar, adabiy qarashlarda Amir Temur butunjahon tarixida o'ziga xos o'rin egallashini anglash sari sezilarli siljish namoyon bo'ldi.

Zotan, sohibqiron bobomiz tarixiy va ma'naviy jihatdan teran o'rganilishga arzigulik ulug'vor shaxsdir.

**Nilufar KADIROVA,  
Bahromjon KUZIMUROTOV,  
DXX "Temurbeklar maktabi"  
o'qituvchilari**

Abdulla Qodiriy tavalludining 130 yilligiga



# "UXLAGANLARNI AGAR QODIR ESAK, UYG'OTAMIZ"



Ulug' adibimiz Abdulla Qodiriy ana shunday kunlarda, aniqrog'i,

1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrida tug'ilgan edi. Yozuvchining uy-muzeyi ham shu kunlar juda gavjum. Inson ruhi tug'ilgan fasliga esh bo'ladi, deb eshitgan edim. Olam ulug'vor go'zallikka burkangan ushbu damlar yo'lida uchragan narsani vayron qilib tashlaydigan sellar, toshqinlar yuz beradi, achchiqqina shamollar ham esib qoladi, shiddatli yomg'irlar ham shu faslga xos. Va bular ortida muazzam bir hayot bor!

Abdulla Qodiriy 1938-yil 4-oktabrda tug'ilib o'sgan aziz shahrida "xalq dushmani" sifatida otib tashlandi. Abdulhamid Cho'lpon u haqda shunday degan edi: "O'zbek onasi yaqin o'rtada ikkinchi Abdulla Qodiriyini tug'masa kerak".

April – bahorning muhtasham pallasi. Shu damlarda Toshkent juda go'zallashib ketgandek tuyuladi. Ko'klam hamma joyda ham ko'z quvonchi, dil sururi, asli. Biroq Toshkentda o'ziga xos ko'rinishlarga ega. Ayniqsa, hovlilardagi katta-katta gilos daraxtlarini aytmayisizmi. Men poytaxtdan boshqa joylarda bunaqasini hech uchratmadim. Yo'g'on shoxlarigacha g'ujum-g'ujum, oppoq bo'lib biram gullaydiki, ulardan taralayotgan nafis ifor... Yozyapman-u, iforni his qilyapman, boshim ham yengil aylanayotgandek.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi "Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan tanlangan asarlari 2019-yili "Sharq"da nashr etildi. Kitobga adibning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Diyori Bakr" asarlari kiritilgan. Kitob do'konida birinchi marta ko'rganimda yonimda yetarlicha pul yo'q edi. Ertasi kuni borganimda esa allaqachon sotilib ketgan ekan. Sotuvchining: "Siz uchun yana bitta olib kelaman", degan gapi bilan besh kun shu do'konga qatnadim. Nihoyat, va'da qilingan kitobni oldim. Rosti, bu kitob yap-yangi emas, varaqlangan, ayrim joylari qalam bilan belgilab qo'yilgan edi. Bunisi men uchun ahamiyatsiz, muhimi, bus-butun, va u qo'limda edi!

Birmuncha vaqt "Keling, kitob o'qiymiz!" sahifasida "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" asarlarini tavsiya qilish haqida o'yladim. Keyin o'ylab ko'rsam, bu asarlar tavsiyaga hech muhtoj emas. Chunki yoshligimizdan eng qimmatli asarlar sifatida ongimizga singdirilgan. Abdulla Qodiriy o'zbek romanchiligi maktabining asoschisi ekanini yaxshi bilamiz. Dramaturg, tarjimon, shoir ekanidan ham xabaringiz bormi?

Uning yuz yil ilgari yozgan "To'ylarimiz" she'ri bugungi kunimizda ham qiymatini yo'qotmagan.

Xondamir Qodiriy kitobning "So'ngso'z"ida shunday yozadi: "Kishiga shunday kunlar kelar, o'sha uzoq-yaqin yillarda o'tgan bobolarimizning VATANI, XALQI, MILLATI, G'OYASI uchun chekkan dardi, tashvishi, balki, bu kunlarda biz, avlodga biroz malol kelar. Lekin baribir ko'nglingiz, qo'lingiz Qodiriyga kelaveradi. Chunki unda shunday bir xislatlar borki, ular sizni ko'p narsadan qaytaradi, ko'p narsaga yetkazadi... Unda Qodiriyning nafrati bor, muhabbati bor..."

**"O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari meni odam qilib shakllantirgan. Dunyoqarashim, yuragim holatini belgilagan, umrim boyligi bo'lgan kitoblar sirasiga kiradi".**

**Erkin VOHIDOV**

1919-yil 4-noyabrda "Ishtirokiyun"da Qodiriyning "Bizda askarlik masalasi" maqolasi e'lon qilinadi. Yodingizda bo'lsa, mazkur maqola bir necha yillar avval "Vatanparvar" gazetasi sahifalarida ko'chirib bosilgan.

**O'qiymiz:** "Boshqalar tarafidan huquqingning toptalmoqi, chetlarga mahkum mazlum bo'lmaslik, chet millatlarga o'z tovushingni eshitdirub eshitmoqqa majbur etuvig'a shubha yo'qim, qo'lingdagi qurolingga, askariy kuchingga qarab bo'lar. Ko'ramizkim Ovrupo, Omriqo millatlari bunchaliq sha'n-shavkatni faqat harbiy kuch ila qozonmishlardir.

...Ammo biz, sharqli mazlum musulmonlar esa shu qurolsizlik, askar yo'qlik ila shu zolim xunxo'rlar zanjiriga band bo'lmishmiz. Durust, biz, sharqlilar g'arblilarga qaraganda madaniyatcha bik tubandamiz, bizim mazlumiyatimiz madaniyatsizligimiz uchun deyilsa mumkin. Lekin shundog' bo'lsa ham, istiqol olib, askarsiz yashamoq butunlay mumkin emas".

Abdulla Qodiriy bu ishning nechog'li muhim ekanini shu birgina maqolada yaqqol ko'rsatib bergan. Buning faqat qog'ozdagina qolib ketmasligiga umid qilgan. Afsus...

1926-yilda yozuvchining "Mushtum" jurnalida Ovsar nomi bilan e'lon qilgan "Yig'indi gaplar"i unga juda qimmatga tushganidan xabaringiz bor. Aynan shu maqola tufayli u O'zbekiston jinoyat qonunlari majmuasining "Aksilinqilobchi...", "Rahbar xodimlarni obro'sizlantirish..." moddalari bilan qoralanadi, jinoyi ish qo'zg'atiladi, ma'lum bir muddat qamalib chiqadi.

**"Yig'indi gaplar"dan o'qiymiz:** "Shu oralardagi muhim hangamaning yana bittasi "Milliy qo'shinning firqa kanferensiyasi", deb arz qilsam, ehtimolki, hech kimning ko'ngliga og'ir kelmas. Nafsilamir, qilay desa ishi, yotay desa og'rig'i yo'q yigitlarimizni basharti muvofiq ko'rilsa va gazarmalaringiz bo'sh bo'lib ko'ngillariga gap kelmasa, qo'llariga miltiq topilmag'anda ham bitta-bitta ketman dasta berib, qo'ruqchilikka qabul qilish chakki bo'lmas, deb xayol qilurimiz. Yana ra'yi o'zlarinikidir".

1919-yil bilan 1926-yil orasi... Qanday katta umidlar bilan yozilgan "Bizda askarlik masalasi" maqolasi... va "Yig'indi gaplar"da achchiq, alamli kulayotgan hafsalasi pir bo'lgan adib.

**"Mustamlakachilarga yerli xalqdan chiqqan haqiqiy rahbar, o'zlari bilan bir safda turadigan teng huquqli o'rtoq kerak emas edi. Ularga tilmoqlar va ijrochi mirshablar zarur edi".**

**Georgiy SAFAROV, "Mustamlaka inqilobi, Turkiston saboqlari".**

Aziz o'quvchi, "O'tkan kunlar"dagi Yusufbek hojini yaxshi bilasiz. Uning tilidan adib shunday yozgan edi: "Men ko'b umrimni shu yurtning tinchlig'i va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilolmadim. Ittifoqni ne el ekanini bilmagan, yolg'iz o'z manfaatini shaxsiyasi yo'lida bir-birini yeb, ichkan mansabparast, dunyoqarast va shuhratparast muttahaamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi. Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tagimizga suv qo'yadigan bo'lsa yaqindirki, o'ris istibdodi o'zining iflos oyog'i bilan Turkistonimizni bulg'atar va biz bo'lsa o'z qo'limiz bilan kelgusi naslimizning bo'yig'a o'rus bo'yindirig'ini kiydirgan bo'larmiz. O'z naslini o'z qo'li bilan kofir qo'lig'a tutqin qilib topshirquchi – biz ko'r va aqlsiz otalarga xudoning la'nati albatta tushar, o'g'lim! Bobolarning muqaddas gavdasi madfun Turkistonimizni to'ng'uzxonaga qilishig'a hozirlang'an biz, iltar yaratguchining qahriga albatta yo'liqarmiz! Temur Ko'ragon kabi dohiylarning, Mirzo Bobur kabi fothilarning, Forobiy, Ulug'bek va Ali Sino kabi olimlarning o'sib-ungan va nashi'u namo qilg'anlari bir o'lkani halokat chuquriga qarab sudrag'uchi albatta Tangrining qahrig'a sazovordir, o'g'lim!".

Bunday fikrlar uchun "Yig'indi gaplar" maqolasi yozilmaganida ham, Qodiriydan baribir "xalq dushmani" yasar edilar.

"Diyori Bakr" kitobini o'qib chiqsangiz, Qodiriyning yana kashf qilgandek bo'lasiz. U jamiyatdagi hech bir voqea-hodisalarga beparvo qaragan emas. Millat dardi bilan yashagan, yongan, yonib ijod qilgan Shaxsdir.

"Diyori Bakr"dagi "Yig'indi gaplar" maqolasini diqqat bilan o'qing. Maqolada anchagina izohlar berilgan. Mazkur izohlar sizga o'sha davr haqida yetarlicha ma'lumotlar bera oladi. Ana shu birgina maqolada ham adibimizning katta yuragi manaman deya ko'rinib turibdi. Uning tili ham o'ziga xos. Bu maqola emas, jamiyat yuziga, o'sha davr amaldorlari yuziga tutilgan oynadir, asli.

"O'tkan kunlar" haqida so'z aytishga men ojizman. Chunki u haqda ulug'larimiz yetarlicha aytib o'tganlar. Adibning "Kalvak Maxzum"i ham bir olam. "Diyori Bakr"da uning xotiralari, maktublari bilan tanishsangiz, bu kitobning o'quvchi uchun naqadar ardoqli bir tuhfaligiga yana bir bor amin bo'lasiz.

Qodiriy o'qing, kichik farzandlaringizga ham taniting. Chunki usiz o'zbek adabiyoti kemtik bo'lib qolar edi.

Huzurlu mutolaalar tilagi bilan

**Inobat IBROHIMOVA**

O'zbek o'g'loni – mustaqillik posboni

Qoraqalpog'iston Respublikasi mudofaa ishlari boshqarmasi yig'in punktida chaqiruv yoshiga yetib, belgilangan saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tgan, sog'lig'i jihatidan harbiy xizmatga yaroqli, yurtimiz himoyasiga kamarbasta bo'lgan mard va jasur yoshlar tantana bilan armiya saflariga kuzatildi.

Darvoqe, bugungi kunda O'zbekiston armiyasi yoshlarning irodasini toblaydigan, ularni o'z Vatani va xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalaydigan, o'g'il bolalarning haqiqiy yigit bo'lib shakllanishiga hissa qo'shadigan jasorat hamda matonat maktabi sifatida o'zini namoyon qilmoqda. O'g'lonlarimizda harbiy xizmatga, boshqacha aytganda, el-yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi, osmonimiz musaffoligi, sarhadlarimiz daxsizligini ta'minlashga bo'lgan mas'uliyat tuyg'usi kuchayib bormoqda. Shu boisdan saflarimiz yildan yilga zabardast, baquvvat, aqlan va ruhan toblangan yoshlar bilan butlanmoqda.

Tadbimning ochilish marosimida ishtirok etganlar barchani qutlab, hozirgi kunda mustaqillik yillarida tug'ilib

# Yoshlar YIGITLIK BURCHINI bajarishga yo'l oldi



voyaga yetgan, mamlakatimizdagi rivojlangan ta'lim muassasalarida eng puxta bilim olgan yoshlar armiya saflariga kirib kelayotganini e'tirof etdi. Armiya ostonasida turgan chaqiriluvchilar va ularning yaqinlarini mana shunday unutilmas kun bilan tabriklab, mard va jasur ota-bobolarimizning munosib izdoshlari bo'lgan hamda Vatanni himoya qilishdek muqaddas va shu bilan birga

sharafli burchini bajarishga shay turgan qoraqalpog'istonlik o'g'lonlarga bukilmaz iroda, matonat va kuch-g'ayrat tiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida muddatli harbiy xizmatni o'tash uchun yo'l olgan mard o'g'lonlarning kuzatuv marosimida keng jamoatchilik vakillari bilan birga o'sib kelayotgan yosh avlod vakillari, "Vatan tayanchi" otryadlari a'zolari ishtirok etdi.



Tantana so'zga chiqqanlar ona Vatanni qo'riqlash har bir yigitning muqaddas burchi ekani, bunday mas'uliyatli vazifa eng sara o'g'lonlarga nasib etishini ta'kidlab, harbiy xizmatga ketayotgan jasur o'g'lonlarga yuksak ishonch bildirgan holda omad yor bo'lishini tiladi.

Nukus gamizoni harbiy orkestri tomonidan ijro etilgan kuy va qo'shiqlar yig'ilganlarga bayramona kayfiyat ulashdi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati**

## Yosh chegarachilar

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari tomonidan an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasi chegaraoldi hududlaridagi umumta'lim maktablari o'quvchi-yoshlarining qalbida yurtga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini yanada oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etib, Chegara qo'shinlarining shonli va jangovar an'analari targ'ib etgan holda sohaga qiziqirish hamda bosqichma-bosqich tayyorlab borishga xizmat qilmoqda.

Respublikamiz bo'ylab eng olis hududlarda istiqomat qilayotgan yoshlarni qamrab olgan holda bosqichma-bosqich, yuqori saviyada tashkil etilayotgan bu yilgi mavsumning birinchi – tuman bosqichida 441 ta jamoa o'zaro bellashib, ulardan 86 tasi viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

# Bellashuv KO'TARINKI RUHDA o'tmoqda

Xususan, tuman bosqichi doirasida Jizzax viloyatida o'tkazilgan bellashuvlar ham qizg'in va murosasiz bahslarga boy tarzda kechib, unda Yangiobod va Zomin tumanlariga qarashli 20 ta umumta'lim maktabi o'quvchilaridan tashkil topgan jamoalar ishtirok etdi. Jamoalar 16 ta shart bo'yicha o'zaro bellashdi.

Musobaqa shartlariga start berilgach, dastlab jamoalarning harbiy liboslari va erishgan yutuqlarini aks ettiruvchi albomlari hamda bayroqlarining ta'rifga baho berildi. Shundan so'ng Saf nizomi talablariga ko'ra, o'g'il-qizlarning safdagi shaxdam qadamlar bilan harakatlanish jarayoni sinovdan o'tkazildi. Qurollarni qismlarga ajratish va yig'ish shartini esa har bir jamoa tezkorlik va aniqlikka e'tibor qaratgan holda, to'g'ri bajarishga harakat qildi. Ishtirokchilarning jismoniy tayyorgarligi-yu bardoshini namoyon etgan qisqa va uzoq masofaga yugurish hamda tumikda tortilish shartlari musobaqa shiddatini yanada oshirishga xizmat qilgan bo'lsa, azimut bo'yicha harakatlanish, granata ulotqirish va kompyuterlashtirilgan trenajyor yordamida jangovar qurollardan o'q o'tish kabi sport mashqlarini bajarish davomida ishtirokchilar o'zlarining harbiy bilim va ko'nikmalarini amalda namoyon etdi.

Kun davomida bajarilgan shartlarning natijalari hakamlar hay'ati tomonidan odilona baholanib sarhisob qilingach, Zomin tumani bo'yicha 60-umumta'lim maktabining "Lochin", Yangiobod tumani bo'yicha esa 13-umumta'lim maktabining "Qalqon" jamoalari faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritib, musobaqaning viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Ayni damda respublikamizning barcha hududlarida 15-apreldan start olishi ko'zda tutilgan musobaqaning ikkinchi – viloyat bosqichiga tayyorgarlik jarayonlari qizg'in davom etmoqda. Biz barcha



ishtirokchilarga omad tilab, eng kuchli jamoalarni respublika bosqichida kutib qolamiz.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari

# ISLOHOTLAR SAMARASI

## ichki ishlar organlari faoliyatida

Boshqa sohalar qatori ichki ishlar organlari faoliyatida ham tinchlik va osoyishtalikni saqlash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishning yangi tizimlari joriy qilinmoqda.

Navoiy viloyati ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i polkovnik Azat Tasbayev bilan suhbatimiz ham hayotga tatbiq etilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar samarasi mavzusida bo'ldi.

**- Davlatimiz rahbarining 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Uning ijrosini ta'minlash yuzasidan viloyat ichki ishlar boshqarmasi tomonidan qanday ishlar amalga oshirildi va bu bugungi kunda nechog'li samara bermoqda?**

- Viloyatda so'nggi yillarda ichki ishlar organlari chinakam xalqchil tuzilmaga aylanib, mahallalarda huquqbuzarliklarning profilaktikasini tashkil etish bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratildi. Har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishda "fuqarobay" va "xonadonbay" ishlash orqali huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasi ta'minlanmoqda. Hududda jinoyatchilikni jilovlash uchun ijtimoiy profilaktikani kuchaytirish, huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish, kriminogen vaziyatga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha xodimlarimiz tomonidan kun-u tun nazorat-reyd tadbirlari tashkil qilinmoqda.

**- Viloyat ichki ishlar tizimi faoliyatida hududimiz tinchligi va osoyishtaligini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlashni yanada yaxshilash bo'yicha qanday islohotlar olib borilmoqda?**

- Ma'lumki, jamiyatda muhim omil bu inson huquqi hamda qadr-qimmatini himoyalashdir. Viloyatimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha keng qamrovli ishlar tashkil qilinib, yangi rejalar asosida ishlayapmiz. Jumladan, viloyat hududida o'g'rilik, firibgarlik, tan jarohati yetkazish bilan bog'liq holatlarning oldini olishda raqamli texnologiyalarni amaliyotga joriy etib, ijobiy samaraga erishayotganimiz haqiqat. Dastlab viloyat markazida joriy qilingan kuzatuv kameralari, huquqbuzarlar va qidiruvdagi shaxslarni yuz qiyofasidan aniqlash tizimi shahar-tumanlar kesimida davom ettirilyapti. Shuningdek, tizimdagi Vaziyatlar markazi orqali mazkur jarayonlar kuzatuvini yo'lga qo'yilgan.

**- Mahallalarni jinoyatdan xoli hududga aylantirishda tizimda qanday chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va**



**profilaktika inspektorlarining ish faoliyatini qoniqarli deb hisoblaysizmi?**

- Jinoyatchilikni jilovlash va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar mahallalarni obod va xavfsiz hududga aylantirishga qaratilgan. Viloyatimizni jinoyatdan xoli hududga aylantirishni mahallalardan boshlash esa ijobiy samara bermoqda. Albatta, bunda mahalla osoyishtaligiga mas'ul profilaktika inspektorlarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Tizimda profilaktika inspektorlari malakasini oshirish, ularning fuqarolar bilan munosabatda xolis va adolatli bo'lishi, huquqiy jihatdan bilim va tajribaga erishishi uchun maxsus o'quv dasturlari tashkil qilingan. Qolaversa, mahallalar yettiligi bilan hamkorlikni mustahkamlab targ'ibot tadbirlarini tashkil etish bilan birga aholi va keng jamoatchilik oldida bajarilgan ishlar, kelgusidagi rejalar haqida hisob berilishi yo'lga qo'yilgan. Bu orqali profilaktika inspektorining faoliyati qay darajada qoniqarli yoki qoniqarsiz ekani aniqlanadi.

**- Sodir etilayotgan jinoyatlar tahlilida erkaklar, xotin-qizlar hamda voyaga yetmagan yoshlar jinoyatiga ham guvoh bo'lamiz. Prezidentimiz "Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oqibati bilan kurashish emas, ularning barvaqt oldini olish lozim", deya ta'kidlagandi. Jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan ishlar yuzasidan ham ma'lumot bersangiz.**

- Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr talablaridan kelib chiqib huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning mutlaqo yangi tizimi yaratildi. Ayni paytda huquqbuzarliklarning oqibati bilan kurashish emas, balki ularning oldini olish eng dolzarb vazifaga aylangan. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, huquqbuzarliklar asosan doimiy ish bilan ta'minlanmagan va uyushmagan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda. Taassufki, bu borada xotin-qizlar bilan bog'liq holatlar ham uchrab turadi. Ayollarning jamiyatdagi o'rini mustahkamlash hamda xotin-qizlar bilan bog'liq turli salbiy oqibatlar oldini olishda tuman va shahar ichki ishlar organlari tizimida xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlarimiz hamda profilaktika nozirlarimiz kun-u tun xizmat olib bormoqda.

Ular mahallalar kesimida xotin-qizlarni tazyiq va zo'ronlikdan himoyalash barobarida ijtimoiy-moddiy, huquqiy va

psixologik ko'mak ko'rsatyapti. Yoshlarga yo'l-yo'riq ko'rsatish masalasida ham bir qator ishlar, jumladan mahalla, korxon va tashkilotlar bilan hamkorlikda ularning muammolari o'rganilib, bandlegini ta'minlash choralari ko'rilmog'da. Jinoyat sodir etilishining oldini olishda amalga oshirilgan ishlar tufayli yoshlar va xotin-qizlar ishtirokidagi jinoyatlar birmuncha kamayishiga erishildi. Ammo gap inson hayoti, fuqarolar xavfsizligi haqida borar ekan, bu ko'rsatkich bilan maqtanib bo'lmaydi...

**- Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurash va uning oldini olish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmog'da. Viloyatimizda bunday jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar xususida ham to'xtalsangiz.**

- Bu borada mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, amaldagi qonunlar ijrosini ta'minlash bo'yicha tizimda yangi tajribalar amaliyotga joriy etilmog'da. Xususan, oliy ta'lim muassasalari, korxon va tashkilotlarning ishchi xizmatchilari bilan muntazam targ'ibot tadbirlari olib borilmog'da. Bunda fuqarolarga poraxo'rlik, tamagirlik kabi holatlar uchun belgilangan qat'iy javobgarlik mavjudligi hamda qonun ustuvorligi to'g'risida keng tushunchalar berib boriladi. Targ'ibot ta'sirchanligini oshirishda shahar ko'chalaridagi monitorlarda korrupsiyaga doir video va suratli lavhalar namoyish etib borilishi ham aholi va yoshlarimizning halol, mas'uliyatli bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**- Tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlarning malakasini oshirishga qaratilayotgan ishlar va istiqbolli kadrlarning ish faoliyatida qo'lga kiritgan yutuqlari to'g'risida ham ma'lumot bersangiz.**

- Albatta, ichki ishlar xodimlarining doimiy ravishda malakasini oshirish ularning nafaqat jismonan, balki ma'nan yetuk bilimga ega bo'lishlari yangi tizimni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda, viloyat IIBda soha mutaxassislari tomonidan ularni sport hamda maxsus o'quv-taktik mashg'ulotlariga jalb etish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, ichki ishlar xodimlari o'rtasida zakovat, kitobxonlik tadbirlari ham tashkil qilinib, xodimlarning



bilimlari sinovdan o'tkazib boriladi. O'zining jismoniy salohiyati bilan viloyat, respublika, shuningdek xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishgan xodimlarimiz ham bisyor. Ular nafaqat IIBning, balki viloyatimizning ham faxri sanaladi.

**- Ichki ishlar tizimida xizmat vazifasini siddiqdildan bajarayotgan xotin-qizlar ham faoliyat yuritmoqda. Ularning mehnatini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtalsangiz.**

- Darhaqiqat, ayollarning erkaklar bilan bir safda turib, ona yurt tinchligi va osoyishtaligi uchun xizmat qilishlarining o'zi bir jasoratdir. Ma'lumki, ichki ishlar organlarida xizmat vazifasini samarali olib borayotgan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhim jarayonlardan biri sanaladi. Bu borada ularni sog'lomlashtirish mashg'ulotlariga jalb qilish, shuningdek psixologik treninglar tashkil etish, oila a'zolari bilan suhbat olib borish, turmush sharoitlarini o'rganish kabi sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Qolaversa, davolanish hamda sog'lig'ini tiklash maqsadida sanatoriyalarga imtiyozli ravishda yo'llanmalar ajratib kelinmoqda.

**- Prezidentimiz tomonidan ta'lim tizimini isloh qilish asosiy o'ringa qo'yildi. "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" degan ezgu g'oya tatbiq etildi. Bu borada viloyat ichki ishlar boshqarmasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda? Ular voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olishda ham xizmat qiladimi?**

- Mamlakatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tamoyil asosida maktab o'quvchilari ta'lim-tarbiyasida nazoratni kuchaytirish, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha viloyat IIBda ham tizimli ishlar bajarildi. Maktablardagi inspektor-psixologlar shtati Ichki ishlar vazirligidan Milliy gvardiya tizimiga o'tkazilishi munosabati bilan ta'lim muassasalarida davomat va xavfsizlik tizimini raqamlashtirish, farzand tarbiyasiga mas'ul ota-ona yoxud vasiylar uchun qonuniy javobgarlik belgilanishi, pedagoglar va ota-onalar bilan mustahkam hamkorlik o'rnatish masalalarida keng qamrovli ishlar olib borilmog'da. Xususan, viloyat hokimining IIBdagi tashrifi chog'ida ham ayni shu mavzuda suhbatlashildi. Kelgusida farzandlarimiz nazoratsiz qolmasligi, ta'lim sifatiga hamda davomatga katta e'tibor qaratish lozimligi bo'yicha rejalar kelishib olindi.

**- Yurtimiz tinchligi va xalqimiz osoyishtaligi barqarorligini ta'minlash yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularining yuksalishiga xizmat qiladi. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi xodimlarining samarali xizmatlari natijasida viloyatimizda fuqarolarning osoyishtaligi ta'minlanmoqda. Tinchlik, xotirjamlik bor joyda esa yuksalish va rivojlanish kuzatiladi.**

Mazmunli suhbatimiz uchun rahmat!

Navoiy viloyati "Muqaddas burch" gazetasi bosh muharriri Dilafroz XALILOVA suhbatlashdi.





– Aka, akajon, suyunchi bering, yosh rassomlar tanlovida chizgan rasmlarim birinchi o'rinni oldi! – quvonchdan, hayajondan yuzlari qizarib, ko'zlari chaqnab turgan Samig' akasiga qo'lidagi sovg' alarni tutqazdi.

– Qoyil, ukajon! Tanlovda g'olib bo'lishingga ishonardim, – ukasini bag'riga bosdi Mirhaydar. – Dadam hayot bo'lganida sen bilan albatta faxrlangan bo'lardi...

Otasi olamdan o'tgandan keyin ukalariga ham otalik, ham akalik qilgan Mirhaydar Samig'ning iqtidorini, orzusini inobatga olib, Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik bilim yurtida tahsil olishiga zamin yaratdi. Bilim yurtini 1938-yilda tamomlagan yigit Toshkentdagi pionerlar saroyida tasviriy san'at to'garagiga rahbarlik qila boshladi. Ko'p o'tmay, ya'ni shu yili u harbiy xizmatga chaqirildi. Kiyev harbiy okrugidagi muhandislik qo'shinlarida xizmat boshlagan Samig' Abdullayevning hayotida armiya maktabi katta burilish yasadi.

Uzoq Sharqdagi vaziyat jiddiylashgach, Abdullayev xizmat qilayotgan diviziya mudofaa uchun o'sha yerga safarbar qilindi. Harbiy xizmatda o'rin topib ulgurgan qahramonimiz 1940-yilning apreligacha Irkutsk shahridagi kichik komandirlar maktabida vuzvod komandiri yordamchisi vazifasida xizmat qildi. Ko'p o'tmay, Odessa harbiy okrugiga xizmatga yuborilgan serjant Abdullayevga Simferopol shahridagi sapyorlar batalyonida vuzvod komandirligi ishonib topshirildi.

### Mohir muhandis, tengsiz sapyor

Kutilmaganda tungi soat to'rtida trevoga sado berdi. Hamma hayratda, nahotki urush boshlangan bo'lsa.

– Bu o'quv trevogasimi yoki...  
– Menimcha, urush boshlangani haqidagi xabar bu.

– Nahotki? Biz urushishni istamagandik-ku?

– Ha, istamagandik, ammo gitlerchilar shuni xohladi. Ana endi o'zlaridan ko'rsin!

# RASSOMLIKDAN QAHRAMONLIK SARI

– yigitlarning qo'li musht bo'lib tugildi...

1941-yilning avgust oyida fashistlar Odessani qurshab oldi. Serjant Samig' Abdullayev o'qchi muhandislik Kerch batalyoni tarkibida Pervomaysk shahrida birinchi bor jangga kirdi. Nikolayev, Xerson, Melitopol, Xarkov, Voroshilovsk, Voroshilovgrad, Rostov... O'ndan ziyod shahar mudofaasi uchun kechgan janglar o'zbek yigitini po'latdek tobladi: harbiy texnikalar va jangchilar uchun suvi havzalar ustiga ko'priklar

yasovchi tajribali muhandis, mohir sapyor sifatida tanildi. Shuningdek, u o'tyurak jangchi ham edi. Janglarda yelkasida qurol bilan ilkidagi vazifani bajarish asnosida, kerak chog'da fashistlar tomon ajal urug'ini yog'dirardi. Uning boshchiligidagi sapyorlar asosan o'q yomg'iri ostida g'alaba yo'llarini minalardan tozalardi. Serjant Abdullayev va jangchilari ayni paytga qadar 2 798 ta turli tipdagi minani zararsizlantirib, qo'mondonlik tomonidan ko'p bor e'tirofga sazovor bo'lgandi.

1943-yil, Krasniy tumanida tanklarga xavfsiz yo'l ta'minlayotgan serjant Abdullayev gitlerchilar mudofaasining oldingi qismida minalashtirilgan maydonni aniqladi.

– Yigitlar, bu galgi vazifamiz yanada zalvarli, – safdoshlariga yuzlandi u. – Dushman yaqinidamiz, minalashtirilgan hudud qattiq nazorat ostida. Ammo tanklarga yo'l ochishimiz shart!

– O'rtoq serjant, bir jonga bir o'lim, har doim vazifamizni uddalaganmiz.

– To'g'ri, bu safar ham chekinmaymiz.

– Sizlardan shu javobni kutgandim, – qo'l ostidagilarga minnatdor qiyofada boqdi Samig'. – Ammo o'ladigan ahmoq yo'q! Vazifaga yarim tunda niqoblangan holda kirishamiz. Albatta, tun zulmatida bu vazifani uddalash oson emas. Sapyor bir marta adashadi, deb bejiz aytilmagan, lekin sizlar professionalsiz. Hatto ko'zingizni yumgan holda ham burchingizni bajara olasiz. To'g'rimi?

– Xuddi shunday!

– Unda ishga kirishamiz. To'rt kishi harakat qilsak, yetarli. Qolganlar har ehtimolga qarshi bizni mudofaa qilib turadi...

Sapyorlar tun qorong'isida ajal ila olishgani kirishdi. Fashistlar ularni anglamagan bo'lsa-da, har ehtimolga qarshi ora-orada o'q yog'dirib turardi. To'rt soatli jarayon muvaffaqiyatli yakunlandi. Dushmanning 97 ta ajal urug'i yo'q qilindi, tanklarga yo'l ochildi. Erta tong artilleriya o'q yomg'iri ostida tanklar oldinga qarab intildi va gitlerchilar mudofaasini yorib o'tdi.

Ayovsiz janglardan birida qo'shinlarimiz Kudako daryosiga yetib bordi. Dushman daryo ko'prigini portlatib, daryoga tushadigan joyni minalashtirgandi. Serjant Abdullayev guruhi bilan o'ta xavfli vazifaga kirishdi. Gitlerchi gazandalarning avtomat va minomyotlari ta'qibi ostida daryo qirg'og'i ajal urug'laridan tozalandi. Endigi vazifa – muhandis sifatida

tanklar uchun o'tadigan yo'l hozirlash. U buning uchun yigitlari bilan emaklagan holda yog'ochlar tashidi. Suvda uch soatdan ziyod harakatlanib, yo'l tayyorladi. Tanklarning daryodan o'tishi ta'minlandi. Demakki, g'alaba ta'minlandi.

1943-yilning sentabri, Ikkinchi jahon urushi avjiga chiqqan palla. Dushmanning minali to'siqlarini zararsizlantirayotgan sapyorlar guruhi boshlig'i ularga qarata tinimsiz o'q yog'dirayotgan o't ochish nuqtasini yo'q qilishga qaror qildi. Ya'ni serjant Abdullayev bir jangchi bilan gitlerchilarning orqa tomoniga o'tdi. Fashistlar kutmagan holda o't ochish nuqtalariga portlovchi modda bog'lamini tashlab, yigitlarini o'q yomg'iridan xalos etdi. Bundan foydalangan sapyorlar harbiy texnika va jangchilar uchun yo'l ochishga kirishdi.

Bu paytda Abdullayev ko'prikkaga o'rnatilgan ikkinchi to'siqqa yaqinlashib qolgandi. Ko'prikk dushman tomonidan minalashtirilib, otish yo'li bilan portlatishga tayyorlab qo'yilgandi. Besh-olti chog'li fashist avtomati bilan hushyor turardi. "Voy iblislar, endi bu yo'lga o'tdilaringmi, hozir senlarga ko'rsatib qo'yaman!" ko'prikkaga yaqinlashish uchun reja tuza boshladi tajribali sapyor va kutilmaganda avtomatidan ketma-ket o'q yog'dirdi. Bir fashist yerga quladi, qolganlari qurolidan o'q otib qocha boshladi, ammo portlatkichga ulangan shurni yoqib ulgurandi. Fashistlar o'qi Samig'ni ham chetlab o'tmadi, u qattiq yarador bo'ldi. Vujudida kuchli og'riq turgan yigitning xayoli shurni o'chirishda. "Minalar portlasa, ko'prikk qulaydi, qo'shinlar uchun yo'l berkiladi. Bunga yo'l qo'ymaslik kerak". U yaradorlik azobida tishini tishiga qo'yib, ko'prikkaga intildi, yonayotgan shurni qirgib tashladi.

### Yuksak e'tirof

Serjant Abdullayev hospitalda davolanib chiqqach, yana safga qaytdi. Jang-u jadallar, mislsiz qahramonliklar... U har bir jangda sapyorlar guruhi bilan ortga chekinmas, dovyurak ekanini ko'rsatar, g'alabani ta'minlashga katta ulush qo'shardi. Uning bosib o'tgan jangovar yo'li, ko'rsatgan qahramonliklari qalamga olinsa, katta bir kitobga joy bo'lardi.

"Fashist bosqinchilariga qarshi janglarda ko'rsatgan qahramonligi, mardligi, jasorati va fidokorligi uchun serjant Samig' Abdullayev Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga hamda Lenin ordeni va "Oltin Yulduz" medali berilishiga loyiq. 1943-yil 14-oktabr. Batalyon komandiri mayor Vidman". Uning bir emas, uchta yuksak unvonga tavsiya etilishining o'zi qahramonimizning tengsiz jasoratlari e'tirofi edi.

1944-yili Sapun-Gorada olib borilgan ayovsiz janglarda u ikkinchi bor qattiq yarador bo'ldi. Ikki oyog'i va qovurg'asidan yaralangan yigit dala hospitaliga yetkazildi, shoshilinch operatsiya qilindi. Og'riq zo'raygandan zo'raygan, harorati ko'tarilib ketgan Samig' hayotdan umidini uzgandi.

Hospitalda birdan g'ala-g'ovur boshlandi. Qo'lidan yaralanib davolanayotgan yaral:

– Abdullayev kim? – deb qichqirib yubordi.

Og'riq azobidan entikib zo'rg'a nafas olayotgan Samig' javob bera olmadi.

– Abdullayev siz emasmi? – qo'lida "Pravda" gazetasini tutgan murojaat qildi unga.

Samig' "nima gapingiz bor?" degandek mayorga qaradi.

– Chin qalbdan tabriklayman, siz Sovet Ittifoqi Qahramoni bo'libsiz!

Boshqa yaradorlar ham birin-ketin qutlay ketdi. Ertasiga janglarda yelkama-yelka turgan quroldosh do'stlari sovg'a-salomlar bilan yetib keldi. Dushmanga nisbatan nafrat so'zlari ila kulgi va yig'i, quvonch va qutlovlar yangradi. To'rt oy shiftga qarab yotgan yigitni oldinda quvonchli kunlar kutardi...

Samig' Abdullayev harbiy qism komandiri mayor Vidman kuzatuvida kichik leytenant unvoni bilan Moskvaga yo'l oldi. Kremlda unga tantanali ravishda Lenin ordeni hamda "Oltin Yulduz" medali taqdim etildi. So'ngra SSSR Oliy Soveti Prezidiumining farmoni o'qila boshlandi. Yigitni hayajon egalladi, zalda oddiy ofitserlardan faqat u. Qarsaklar sadosi ostida omadli qahramonimiz Samig' Abdullayevga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni topshirildi...

**Zulfiya YUNUSOVA,**  
"Vatanparvar".  
Xotira kitobi asosida  
tayyorlandi.



## Baydarka va kanoe

# NUFUZLI MUSOBAQALARGA PUXTA HOZIRLIK

Asosiy tarkibi Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillaridan iborat bo'lgan baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolarini oldinda o'ta muhim musobaqalar kutmoqda. Xususan, yana bir haftadan so'ng Yaponiya poytaxti Tokio shahrida "Parij-2024" yozgi Olimpiya o'yinlari yo'llanmalari uchun ham kurash kechadigan Osiyo chempionati boshlanadi, joriy yilning avgust oyida esa ro'yi zamin sayqali Samarqand shahrida baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha jahon chempionati bo'lib o'tadi. Ana shu musobaqalarga atletlarimiz hozirdan puxta hozirlik ko'rmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan 1993-yilda tashkil etilgan va mamlakatimiz armiyasining sport markazi, milliy terma jamoalarimizning tayanch ustuni sifatida ish yuritayotgan Markaziy harbiy sport klubi, endilikda Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazida 20 tadan ortiq sport turi bo'yicha faoliyat yo'lga qo'yilgan. 2023-yilgi mavsumda MVSM a'zolari mazkur sport turlari bo'yicha xalqaro hamda mamlakat miqyosidagi musobaqalarda qatnashib, jami 669 ta (300 ta oltin, 154 ta kumush, 215 ta bronza) medalga sazovor bo'ldi. Shundan 290 ta medalga xalqaro maydonda erishilgan bo'lsa, 379 ta medal mamlakat miqyosidagi musobaqalarda qo'lga kiritildi. Ushbu muvaffaqiyatlarga baydarka va kanoechilar ham munosib ulush qo'shdi.

Baydarka va kanoeda eshkak eshish xususida so'z ochilganda mamlakatimiz sport muxlislari birinchi navbatda armiyamiz vakillari – Vyacheslav Gorn, Gerasim Kochnev va Vadim Menkovni tilga oladi. Ayniqsa, ofitser Menkov ko'plab xalqaro musobaqalarda g'olib va sovrindor bo'lishdan tashqari ikki marta jahon chempionligiga erishib, Vatanimiz dovrug'ini dunyoga taratishga salmoqli hissa qo'shgani, o'z navbatida, yoshlar qalbidagi vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish bilan yurtimiz sport muxlislari ko'nglidan

chuqur joy olgan. Endilikda u erishgan muvaffaqiyatlar davomchilari MVSMda yana kamol topmoqda. Ulardan biri Artur Guliyevdir. Bundan besh yil oldin Ruminiyada o'tkazilgan yoshlar o'rtasidagi dunyo birinchiligida g'olib chiqqan Guliyev o'tgan yili kattalar o'rtasida ham jahon chempionligiga erishdi. Kanoechimiz Germaniyada o'tkazilgan baydarka va kanoeda eshkak eshish

bo'yicha jahon chempionatining 200 metr masofaga kechgan hal qiluvchi poygasida eng yaxshi natijani (38.729) qayd etdi.

Asosiy tarkibi MVSM vakillaridan iborat bo'lgan baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi 2023-yilning dekabr oyidan beri bir necha bosqichdan iborat uzluksiz mashg'ulotlarni turli mamlakatlarda olib bordi. Xususan, joriy yilning fevral oyida Turkiyaning Belek shahrida xalqaro o'quv-mashg'ulot yig'inini o'tkazib qaytgan sportchilarimiz Toshkent dengizida va Samarqand eshkak eshish kanalida o'z mahoratlarini oshirishda davom etdi. Ushbu mashg'ulotlarga Bolgariya va Vengriya davlatidan kelgan tajribali murabbiylar ham jalb etildi. Zotan, yana bir haftadan so'ng Yaponiyada "Parij-2024" Olimpiadasiga yo'llanmalar taqdim etadigan Osiyo chempionati boshlanadi. Qolaversa, 23-25-avgust kunlari ro'yi zamin sayqali Samarqand mazkur sport turi bo'yicha jahon chempionatiga mezbonlik qiladi. Bahslar Markaziy Osiyoda yagona sanalgan eshkak eshish kanalida bo'lib o'tadi. Ana shu musobaqalarga baydarka va kanoechilarimiz hozirdan puxta hozirlik ko'rmoqda. Jumladan, Samarqanddagi o'quv-mashg'ulot yig'ini mobaynida O'zbekiston kubogi bahslari ham o'tkazildi. Unda g'oliblikka erishgan sportchilar Yaponiyada o'tkaziladigan qit'a birinchiligida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi. Asosiy tarkib negizi avvaldan kutilganidek MVSM vakillari, ya'ni Nilufar

Zokirova, Dilnoza Rahmatova, Xonzoda Erkinova, Yekaterina Shubina, Artur Guliyev, Shaxriyor Mahkamov, Elyor Mamadaliyev kabi sportchilardan tashkil topdi.

18-21-aprel kunlari Tokio shahrida bo'lib o'tadigan baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha Osiyo chempionati oldidan O'zbekiston Rowing & Canoe federatsiyasi ham qit'a birinchiligida qatnashadigan atletlarimizni ma'lum qildi.

#### Olimpiya masofalari:

S1 200 metr: Nilufar Zokirova  
S2 500 metr: Dilnoza Rahmatova, Xonzoda Erkinova  
S1 1000 metr: Nurislom To'xtasin o'g'li  
S2 500 metr: Artur Guliyev, Vladlen Denisov  
K1 500 metr: Yekaterina Shubina  
K2 500 metr: Yekaterina Shubina, Arina Tanatmisheva  
K1 1000 metr: Shaxriyor Mahkamov  
K2 1000 metr: Shaxriyor Mahkamov, Samandar Haydarov

#### Noolimpiya masofalari:

S1 200 metr: Elyor Mamadaliyev  
K1 200 metr: Denis Onufriyev  
K1 200 metr: Shahrizoda Mavlonova  
K2 mikst 200 metr: Shahrizoda Mavlonova, Ozodjon Amriddinov

Eslatib o'tamiz, Tokioda bo'lib o'tadigan baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha Osiyo chempionatida birinchi o'rinni qo'lga kiritgan sportchilar 4 yillikning eng nufuzli musobaqasi – yozgi Olimpiya o'yinlariga yo'llanma oladi. Bu borada vakillarimizga omad tilaymiz!



## SHOHSUPA

(xabarlar)



#### SAMBO



Armaniston poytaxti Yerevan shahrida sambo bo'yicha 11 mamlakatning 200 nafardan ziyod sambochisi ishtirokida jahon kubogi bahslari bo'lib o'tdi. Unda ishtirok etgan mamlakatimizning 12 nafar sambochisi yurtimiz sport sharafiga munosib himoya qildi. Bitta oltin, 5 ta kumush va 3 ta bronza medalni qo'lga kiritgan O'zbekiston terma jamoasi umumjamo'a hisobida Rossiya va Ukrainadan keyin 3-o'rinni egalladi.

#### SHAXMAT



Poytaxtimizdagi Xalqaro shaxmat akademiyasida o'zbekistonlik birinchi grossmeyster Georgiy A'zamov xotirasiga bag'ishlangan XVII xalqaro turnir nihoyasiga yetdi. "A" guruhida indoneziyalik Susanto Megaranto 8 ochko to'plagan holda g'olib chiqdi va 5 ming AQSh dollariga ega bo'ldi. "B" guruhida esa 8,5 ochko to'plagan hamyurtimiz Hadiyatillo Muhamedovga teng keladigani topilmadi. Shuningdek, turnirda faxriylar, turli yosh toifasidagilar ham egallagan o'rinlariga qarab mukofotlandi.

#### VELOSPORT



Shveysariyada velotrek bo'yicha "Life's An Omnium Madison" turniri bo'lib o'tdi. Unda qatnashgan "Tashkent City Women Professional Cycling Team" jamoasining ikki nafar vakili muvaffaqiyat qozondi – 2 ta oltin medalga sazovor bo'ldi. Shiddatli ruhda kechgan bahslarning ochkolar poygasida velosportchimiz Nafosat Koziyeva, sprint dasturida esa Margarita Misurina g'olib chiqdi.

#### TENNIS



Hamyurtimiz Sergey Fomin Turkiyaning Antaliya shahrida o'tkazilgan xalqaro turnirning juftlik bahslarida sovrindor bo'ldi. U neytral tennischi Pavel Verbin bilan juftlik hosil qildi. Mazkur juftlik dastlab neytral tennischilar Andrey Shepelev va Kirill Kalennik tandemini 7:5, 6:2, chorak finalda shveysariyalik Matteo Lavizzari va chexiyalik Shtepan Pechak juftligini 7:5, 6:4, yarim finalda mezbon tennischilar Umot Akkoyun hamda Mert Nachi Turker tandemini 7:6, 6:4 hisobida taslim qildi. Finalda esa germaniyalik Jon Shperle va Marlon Vankan juftligiga 7:6, 6:1 hisobida imkoniyatni boy berdi va turnirning vitse-chempioniga aylandi.

#### BOKS



Dunyo bokschilari haqida ma'lumotlarni yetkazuvchi Boxrec.com sayti havaskor bokschilarning vazn toifasidan qat'i nazar, aprel oyidagi umumiy reytingini e'lon qildi. Hamyurtimiz Hasanboy Do'smatov dunyoning eng kuchli havaskor bokschilari ro'yxatida 1-o'rindan joy oldi. Uning bunday yuqori e'tirofga munosib ko'rilishiga havaskor bokschilar o'rtasida 138 ta jangdan 120 tasida g'alaba qozongani bo'ldi. Yana bir bokschimiz Ruslan Abdullayev rossiyalik Gabil Mamedov va fransiyalik Sofyan Umiadadan keyingi 4-pog'onadan joy oldi.

#### PARA DZYUDO



Turkiyaning Antaliya shahri mezbonlik qilgan para dzyudo bo'yicha xalqaro Gran-pri turnirida polvonlarimiz 3 ta oltin va bitta bronza medalni qo'lga kiritdi. Musobaqaning dastlabki kuni Sherzod Namozov va Uchqun Quronboyev o'z vazn toifasida barcha raqiblarini yengib, g'oliblikni nishonladi. Ertasi kuni Dovurxon Karomatov (-90 kg) ham oltin medalga sazovor bo'ldi. Eng og'ir (+90 kg) vazn toifasidagi polvonimiz Aloviddin Ko'raqulov esa bronza medal bilan taqdirlandi.

Rasul JUMAYEV,  
"Vatanparvar"

## Muloqot

# Uch avlod uchrashuvi



Nukus shahrida joylashgan Jollibay Izentayev nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internatida Mudofaa vazirligi faxriylar ishlari bo'yicha Shimoli-g'arbiy harbiy okrug bo'linmasi tomonidan "Uch avlod uchrashuvi" o'tkazildi.

Boy hayotiy tajriba, bilim va malakaga ega bo'lgan Qurolli Kuchlar faxriylari bugun nafaqalik gashti bilan bir qatorda o'sib kelayotgan yosh avlod vakillarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirish, mamlakatimiz istiqboli uchun fidoyi va jonkuyar etib voyaga yetkazishda salmoqli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Milliy san'atimizning yosh va umidli ixlosmandlari tahsil olayotgan dargohda harbiy ustozlar iliq kutib olindi. Ularning so'zlagan nutqlari, hayot tajribasidan o'tgan sinovli damlari yoshlar uchun ibrat bo'lgan bo'lsa, katta hayotda asqatadigan pand-u nasihatlari yosh ijodkorlarni katta marralar sari ruhlantirdi.

Ayniqsa, Afg'on urushi qatnashchilarining urush tafsilotlari haqidagi nutqlari, janggohlarda kechirgan kechmishlari o'quvchilarga bugungi dorilamon kunlarga shukrona keltirib, tinchligimiz eng katta boyligimiz ekani yaqqol misollar bilan tushuntirildi.

Samimiy muloqot va savol-javobga boy o'tgan uchrashuv yoshlarda katta qiziqish uyg'otgan bo'lsa, maktab o'quvchilari ijodiga mansub bo'lgan namunalar faxriylarda iliq taassurot qoldirdi.

Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazining harbiy orkestri jamoasi tomonidan ijro etilgan kuy va qo'shiqlar tadbirga o'zgacha kayfiyat bag'ishladi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati**

# Yangi O'zbekistonning mustahkam qalqoni



Zangiota tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabda Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi viloyat hududiy bo'linmasi, Toshkent harbiy okrugi qo'mondonligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent viloyati kengashi bilan hamkorlikda buyuk ajdodlarga munosib bo'lish, yurtimiz taraqqiyotiga daxldorlik bilan yashash har birimiz, ayniqsa yoshlarning muqaddas burchi ekanligini keng targ'ib qilish maqsadida "Milliy armiyamiz Yangi O'zbekistonning mustahkam qalqonidir" shiori ostida "Uch avlod uchrashuvi" o'tkazildi.

Unda iste'fodagi general-mayor Raxmatillo Ataxanov, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi faxriylar kengashi mutaxassisi zaxiradagi podpolkovniklar Inom Xudoyberdiyev va Erkin Raxmonqulov, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent viloyati kengashi bo'lim boshlig'i Erkin Sharapov, Zangiota tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab direktori Yorqinoy Mirzahmedova hamda o'quvchi-yoshlar ishtirok etdi.

So'zga chiqqan faxriylar bugungi kunda milliy armiyamizning kuch-qudrati, jahon arenalarida erishayotgan yutuqlari, jangovar salohiyatlarini yanada oshirishda amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risida gapirishdi.

Tadbir ishtirokchilari tomonidan Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan islohotlar, yoshlarga davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar, keksa avlod vakillarining hayotiy tajribalari, ular erishgan yutuqlar haqida o'zaro fikr almashildi.

Albatta, bu kabi tadbirlar yoshlarning ma'nan yetuk bo'lib ulg'ayishiga, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, harbiy xizmatga bo'lgan havas va qiziqishlarining ortishiga, shuningdek faxriylarning hayot maktabi bilan yaqindan tanishishga xizmat qiladi.

Maxsus avariya-tiklash boshqarmasi "Impuls" jamoasining Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlari yoshlarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

**Akmaljon SHIRINOV, maktab direktori o'rinbosari**

## Sana



# O'ZBEK ROMANCHILIGINING ASOSCHISI

Yurtimizda Abdulla Qodiriy asarlari kirib bormagan birorta ham xonadon bo'lmasa kerak. U faqat o'zbeklarning emas, balki Turkiston xalqlarining ham sevimli adibi, ozodlik va istiqloq kuychisidir. Abdulla Qodiriy nomi tilga olinganda bir entikib, hayratlar bilan Otabek va Kumush, Anvar va Ra'nolar taqdirini esga olmaydigan o'zbek ziyolisi, adabiyot muhibi topilmasa kerak.



Abdulla Qodiriy – milliy adib, millatning jonkuyar ijodkori. Uning tavalludiga bugun 130 yil to'ldi. Mamlakatimizda o'zbek romanchilik maktabining asoschisi, vatanparvar adib Abdulla Qodiriy xotirasiga ehtirom ko'rsatish, uning boy merosi bilan yosh avlodni yaqindan tanishtirish borasida e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda.

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakultetida ham Abdulla Qodiriy tavalludiga bag'ishlangan "O'zbek romanchiligining asoschisi" mavzusida adabiy-badiiy kecha bo'lib o'tdi.

Tadbir davomida ishtirokchilar tomonidan Abdulla Qodiriyning hayot yo'li, eng sara she'rlari, ijodi hamda badiiy mahorati borasida fikrlar bildirildi. "O'tkan kunlar" asari asosida iqtidorli talabalar tomonidan tayyorlangan sahna ko'rinishi tomoshabinlarga manzur bo'ldi.

**Jamshid NAZAROV, Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti tyutori**

# TANQIDIY VA TAHLILIIY RUHDA KECHDI

Taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar haqiqat ekanini yaxshi anglaymiz. Tarbiya masalalariga e'tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko'ngilsizliklar ham, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar ham barchamizga ayon. Darhaqiqat, tarbiya nafaqat shaxslarning shu bilan birga jamiyatning, millatning ma'naviy qiyofasini belgilab beruvchi eng muhim omillardan biridir.



Qurolli Kuchlar akademiyasida bo'lib o'tgan o'quv-uslubiy yig'in ham tarbiyaviy ahamiyati jihatidan Avloniyning ilgari surgan mulohazasiga hamohang ravishda bo'lib o'tdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Unda harbiy okruglar qo'mondonlarining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari, harbiy ta'lim muassasalari mas'ul ofitserlari, Sog'liqni saqlash vazirligi,

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi, harbiy prokuratura xodimlari ishtirok etdi.

Mudofaa vazirining o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev raisligida o'tgan mazkur yig'in tanqidiy va tahliliy ruhda kechdi. Sustkashlikka yo'l qo'ygan vakolatli shaxslar faoliyatidagi kamchiliklarga nisbatan jiddiy e'tirozlar bildirildi. Qo'shinlarda xizmat faoliyatini o'tayotgan harbiy xizmatchilarning tartib-intizomi, yo'l harakati qoidalariga rioya qilishi, korrupsiya, virtual

tashkil etish bo'yicha ishlab chiqilgan "G'oyaviy jangchi" nizam loyihasi mazmun-mohiyatini yetkazish, har qanday og'ir va murakkab vaziyatda yurtni ishonchli himoya qilishga tayyor bo'lgan chinakam vatanparvar, fidoyi harbiy xizmatchilarni shakllantirish, shu bilan birga harbiy xizmatchilar



va ularning oila a'zolari bilan ishlash tizimi tahliliga bag'ishlangan bir qator ma'ruzalar tinglandi.

Yakunda yig'in ishtirokchilari Muqimiy nomidagi O'zbek davlat musiqali drama teatriga tashrif buyurishdi. Unda Bahodir Nazarov rejissyorigida sahnalashtirilgan "Qaytar dunyo" spektakli namoyish etildi. Inson qadri, farzandlar tarbiyasi, oqibat haqida hikoya qilinadigan mazkur pyesa tomoshabin sifatida tashrif buyurgan o'quv-uslubiy yig'in ishtirokchilariga manzur bo'ldi.

**Sherzod SHARIPOV,**  
"Vatanparvar"

## Umummilliy loyiha



Yurtimizda davom etayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Mudofaa vazirligi markaziy aloqa uzelliga qarashli Nurafshon shahridagi hududga mevali, manzarali daraxtlar hamda gul ko'chatlari ekish ishlari amalga oshirildi.



## "YUTUQLARIMIZDAN BOG' YARATAMIZ"



Hududga kirishingiz bilan sizni bayramona kayfiyat chulg'ab oladi. Ko'kalamzorlashtirish ishlari ishtirokchilari jipslikda 20 mingdan ziyod nihollarni ulug' maqsadlar va shartli timsollar bilan yerga qadamoqda. Chunki ular daraxtlarning insoniyatga qanchalar nafi borligini yaxshi his qilishadi.

Vatan himoyachilarining mehnatlarini biroz muddat kuzatganimizdan so'ng o'zlarining ham bu boradagi fikr-mulohazalari bilan qiziqdik. Podpolkovnik Qayum Umarov 4-sinfda o'qiydigan o'g'li Firdavsni o'zi bilan olib kelgan ekan. Bu bilan farzandining ona zaminga mehr bilan ulg'ayishini, o'z o'mida voyaga yetganida unda tabiatga nisbatan javobgarlik hissi ortishini xohlayotganini aytdi.

Ko'plab xalqaro sport musobaqalari g'olibi katta serjant Oydiyov Ubaydullaxo'jayeva esa o'ziga o'xshagan

sportsevar safdoshlari bilan har bir erishgan muvaffaqiyati uchun alohida ko'chat qadayotganini, kelajakda shu tarzda yutuqlaridan katta bir bog' yaratish niyatida ekanini bildirdi.

Hamma bilan birma-bir suhbatlashsak, ishdagi jadallikka xalaqit berishimizni inobatga olib, intervyuni to'xtatdik. Muhimi, ular barcha ko'chatlarni ekib bo'lmaganlaricha tinim bilmadi.

Biz ham ekishga hissamizni qo'shib, ortga qaytdik.

Shuningdek, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti maydonida ham Mudofaa vazirligi, Bosh prokuraturasi, O'rmon xo'jaligi agentligi hamkorligida "Yashil makon" umummilliy loyihasi davomida bahorgi daraxt ko'chatlarini ekish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda 50 gektar maydonga 25 ming tup daraxt ko'chatini ekish rejalashtirilgan bo'lib, shundan 20 gektardan ortiq yerga 12 ming tupdan ortiq daraxt ko'chatlari ekildi.

**Kapitan Aziz NORQULOV,**  
"Vatanparvar"

## GERMANIYA TAJRIBASI O'RGATILDI



Tashkilotning Toshkent shahar kengashi tasarrufidagi Chilonzor tumani o'quv sport-texnika klubida videoanjuan shaklida o'tkazilgan mashg'ulot davomida Germaniya Federativ Respublikasining "Duvenbeck



Kraftverkehr GMBH & CO.KG" hamda "SBH WEST" kompaniyalari mutaxassislari tomonidan nemis diyorida "CE" toifali haydovchilar uchun

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tizimidagi avtomototransport haydovchilarini tayyorlash kurslari o'qituvchilari va instruktorlari uchun haydovchilikning Germaniya tajribasi bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

belgilangan yo'l harakati qoidalari yuzasidan tushunchalar berildi.

Shuningdek, o'quv avtodromida tirkama va yarim tirkamali avtomobillarda harakatlanish tartib-qoidalari amaliy mashg'ulotlar asosida ko'rsatib berildi.

Bu kabi mashg'ulotlar Germaniyada vaqtincha haydovchilik kasbida ishlash istagida bo'lgan va shu maqsadda "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida tahsil olayotgan o'zbekistonliklarga mazkur sohada xorij standartlari asosida dars berilishi uchun muhimdir.

## YUKSAK MA'NAVİYAT SOHIBI



Mamlakatimiz bo'ylab O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur tavalludining 688 yilligiga bag'ishlab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va davra suhbatlari o'tkazilmoqda.



Tadbirda "Vatanparvar" tashkiloti viloyat kengashi raisining o'rinbosari Dilshod Toshbekov, mudofaa ishlari boshqarmasi faxriylar kengashi raisi Rashid Sherov hamda Qurolli Kuchlar faxriylari Ubaydulla Amirov, Mo'min G'aniyev so'zga chiqib, talabalarga Amir Temurning hayot yo'li, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, Temuriylar sulolasining ilm-fan, madaniyat va adabiyot sohalarini yuksalishida tutgan o'mi to'g'risida ma'lumot berdilar.

Tadbir davomida talabalar tomonidan Amir Temurga bag'ishlab yozilgan she'rilar o'qildi va buyuk sarkarda qalamiga mansub hikmatli so'zlardan namunalar keltirildi.

Mana shunday tadbirlardan biri tashkilot tashabbusi bilan Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida "Sohibqiron Amir Temur - buyuk davlat arbobi, yuksak ma'naviyat sohibi" mavzusida o'tkazildi.

## HARBIY SPORT O'YINLARIGA START BERILDI

Respublika bo'ylab "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining mahalla bosqichi boshlandi. Unda mamlakatimiz mahallalarining 17 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan yoshlaridan tashkil topgan jamoalari to'rtta sektor kesimida bellashmoqda.

Joriy yilning mart oyida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi, Yoshlar ishlari agentligi hamda bir qator vazirlik va idoralar o'rtasida imzolangan "Shunqorlar" harbiy-vatanparvarlik spartakiadasini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi qarorga muvofiq, mazkur o'yinlarning mahalla, tuman (shahar), hududiy va respublika bosqichlari o'tkazilishi belgilangan. O'yinlarning mahalla bosqichida uyushmagan yoshlardan tashkil topgan jamoalar ikki blokdan - "Harbiy-vatanparvarlik" va "Harbiy-amaliy ko'pkurash"dan iborat sinovlardan o'tkaziladi.

Eslatib o'tamiz, "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining respublika bosqichida g'olib bo'lgan jamoa O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisining kubogi bilan taqdirlanadi.

Mazkur o'yinlarni o'tkazishdan asosiy maqsad, yoshlarni Vatanga sadoqat va yuksak harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishga qiziqishini oshirib borish hamda ularni ruhan va jismonan chiniqtirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

"Men vatanparvarman"

Kelajagimiz egalari

So'ragan edingiz

## GALDAGI MANZIL QASHQADARYO

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tashabbusi bilan kuch tuzilmalari bilan hamkorlikda respublikamiz bo'ylab olis maktablar o'quvchi-qizlari o'rtasida "Men vatanparvarman" shiori ostida o'tkazilayotgan tanlovlar davom etmoqda.

Bu galgi manzil Qashqadaryo viloyati bo'ldi. Xususan, uch kun davomida Muborak tumanidagi 34-, Nishon tumanidagi 26- va G'uzor tumanidagi 1-umumta'lim maktablarida bellashuvlar o'tkazildi.

Do'stona bahslarda "Vatanparvarlik mening tasavvurimda" mavzusidagi chiqishlar va qatnashchilarning ijodiy ishlari barchaga o'zgacha kayfiyat bag'ishladi.

Har bir jarayon hakamlar hay'ati tomonidan baholab borildi. Yakunida g'olib hamda sovrindorlarga faxriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirildi.

Shuningdek, faollik ko'rsatgan Mudofaa, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari va Milliy gvardiya ayol harbiy xizmatchilari hamda mutasaddi tashkilotlar mas'ullari rag'batlantirildi.

Tadbir so'ngida harbiy orkestr jamoasi tomonidan konsert, harbiy xizmatchilar tomonidan ko'rgazmali chiqishlar namoyish etildi.

**Adliya podpolkovnigi Sardor YORMATOV,**  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining yordamchisi

## OCHIQ ESHIKLAR KUNI

Jamoat xavfsizligi universiteti va Harbiy prokuratura hamkorligida mazkur ta'lim maskanida ochiq eshiklar kuni o'tkazildi.

Unda umumta'lim maktablari o'quvchilari va mahalla yoshlari qamrab olindi.

So'zga chiqqanlar mamlakatimizda yoshlar uchun yaratilgan keng imkoniyatlar haqida to'xtaldi. Tinchlik qadri, Vatanga xizmat va bunda harbiy xizmat nufuzi e'tirof etildi.

Harbiy xizmatchilarning jangovar chiqishlari, harbiy va maxsus texnikalar namoyishi ishtirokchilarda katta ishtiyoq uyg'otdi. O'zbek jang san'ati federatsiyasi va Toshkent tumanidagi 9-maktab o'quvchilarining chiqishlari ham barchaga o'zgacha ruh bag'ishladi.

So'ngra universitet muzeyi va axborot-resurs markaziga sayohat uyushtirildi. Tadbir yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

**Adliya podpolkovnigi Botir SOBIROV,**  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining yordamchisi

## HUQUQIY MASLAHAT

**Savol:** Mendan bir tanishim qarz so'rab turibdi. Shu bois unga beradigan qarzimni yozma ravishda amalga oshirmasdan tilxat olib qo'ysam ham bo'ladimi?

**Javob:** Fuqarolik kodeksi 733-moddasiga ko'ra, fuqarolar o'rtasida qarz shartnomasi, agar bu qarzning summasi bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan (bugungi kun holatiga 3 mln 400 ming so'mdan) ortiq bo'lsa, oddiy yozma shaklda, shartnomadagi taraflardan biri yuridik shaxs bo'lganda esa summasidan qat'i nazar, yozma shaklda tuzilishi shart.

Qarz oluvchining tilxati yoki unga qarz beruvchi tomonidan muayyan summa yoki muayyan miqdordagi ashyolar topshirilganligini tasdiqlaydigan boshqa hujjat mavjud bo'lsa, qarz shartnomasi yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi.

Agar qarz majburiyati qarz oluvchi tomonidan berilgan veksel, obligatsiya yoki qarz summasini va qarz beruvchining uni undirib olish huquqini belgilaydigan boshqa qimmatli qog'oz bilan tasdiqlangan bo'lsa, qarz shartnomasining yozma shakliga rioya qilingan hisoblanadi.

**O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi axborot xizmati**



Yashil makon

# KELAJAK AVLOD OLDIDAGI MAJBURIYATIMIZ

Ekologiya va atrof-muhitni yaxshilash, hududlarni obod va ko'rkam qiyofaga keltirish maqsadida "Yashil makon" bu – kelajak avlod oldidagi bizning majburiyatimiz!" shiori ostida o'tkazilayotgan "Yashil makon" umummilliy tadbiri Shimoli-g'arbiy harbiy okrug hududida davom etmoqda. Mavsum davomida harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi tomonidan 100 ming tupdan ziyod daraxt ko'chatlari va butalar ekilgan.

Harbiy xizmatchilar tomonidan uyushqoqlikda ko'chatlarni ekish jarayonida aynan o'lkamizning shimoliy hududlari ob-havosi va tashqi muhitiga moslashuvchan, yillar davomida o'sib, yashovchanlik qobiliyatini namoyon eta olgan, qumli va sho'r yerlarga hayot baxsh eta oladigan daraxtlarning ko'proq ekilishiga asosiy e'tibor bo'sh turgan yerlarda bog'larni yaratish, ko'kalamzorlashtirishga qaratilmoqda.

Ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbari tomonidan "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish, mazkur loyiha doirasida yiliga 200 mln. tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish belgilangan edi. Bunday keng ko'laml tashabbusning amalga oshirilishi natijasida shaharlarimizdagi yashil maydonlar hududi hozirgi 8 foizdan 30 foizga oshirilishi rejalashtirilgan.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi tashabbusi bilan Nukus garnizonida mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekilishi boshlandi. Ko'chatlarni ekish tadbirlarida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'mondonligi hamda harbiy xizmatchilar faol qatnashib, mamlakatimiz ekologiyasining kelajagi uchun ulkan umidlar bilan Nukus garnizonidagi harbiy qism va muassasalar hududlariga ko'chatlarni ekib chiqmoqda.

Harbiy qism va muassasalar, harbiy shaharchalar hududlarini ko'kalamzorlashtirish maqsadida Nukus va Urganch garnizonlaridagi


harbiy shaharchalarning hududidagi bo'sh yerlarga manzarali daraxtlar ekilmoqda. Ko'chatlarni o'tqazishdan oldin unumsiz qum va tuproq olib tashlanib, o'miga maxsus aralashmali tuproq substansiyasi qo'yilmoqda.

Shuningdek, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'mondonligi tomonidan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 2024-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida 50 ming tup tol va terak qalamchalari, 10 mingdan ziyod mevali va 5 mingdan ortiq manzarali daraxt ko'chatlari ekildi, mevali va manzarali daraxt ko'chatlarining 35 mingtasi Xorazm

viloyatidagi harbiy qism va muassasalar hududlaridagi bo'sh turgan yerlarni obodonlashtirish maqsadida ekildi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati tumanlarida ham harbiy xizmatchilar tomonidan 10 mingga yaqin daraxt ko'chatlari yerga qadalib, ko'chalar obod holatga keltirildi. Bunday xayrli tadbirlar davom etmoqda.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug  
matbuot xizmati



## Reklama

# "PGS" MCHJ QUYIDAGI USKUNALARNI TAUSIYA ETADI

REKLAMA REKLAMA

"PGS" mas'uliyati cheklangan jamiyati quyidagi mahsulotlarni tavsiya etadi: elektro'choq, ekomangal hamda kichik "PGS" novvoyxonalarini tavsiya qiladi. Bu qurilmalar keng turdagi non va non mahsulotlarini (buxanka, bulochka, obinon, baton, somsa, qandolat mahsulotlari va boshqa ko'plab turdagi mahsulotlarni) pishirish uchun mo'ljallangan.

Kichik novvoyxona qurilmasi bir-birining ustiga o'rnatilgan ichki kameralardan iborat korpusga egadir. Har bir kamera mahsulotni pishirish uchun mo'ljallangan.

Qurilma sopoldan yasalgan isitkich qismlar yordamida isiydi. Bu esa mahsulotning sifatli pishirilishini ta'minlaydi. Qurilma oshxona, restoran, sanatoriy va harbiy qismlarda a'lo darajada sinovdan o'tgan. Bahosi kelishilgan narxda.

PGS – kichik novvoyxonasi mana 30 yildirki, O'zbekiston bozolarida turdosh korxonalar orasida yetakchilik qilmoqda. Bu uskuna sifat va vaqt sinovidan o'tgan.

KICHIK  
NOVVOYXONA



Sizning PGS – kichik novvoyxonasidan foydalanishingiz va ishonchingiz 5 yil bepul xizmat bilan kafolatlanadi. Shuningdek, uzoq muddat ishlashi va ishonchliligi bilan sizga manzur bo'lishiga kafolat beramiz.

ELEKTRO'CHOQ  
EKOMANGAL



Manzil:  
Toshkent shahri  
Gavhar ko'chasi, 125-uy.

Murojaat uchun telefonlar:

95 169-78-51  
95 169-78-52  
95 169-78-53



Mahsulotlar sertifikatlangan.

# RUHIYAT

(psixolog maslahati)

Atrofimizdagilar bizning ichki olamimizni aks ettiradi. Bizni o'rab turgan insonlar, vaziyatlar bizni uyg'otish uchun, hayotdagi vazifamizni eslatish, unga olib borish uchun uchraydi. Shu sabab ularning bunday buyuk xizmatlari uchun ulardan xafa bo'lishimiz emas, aksincha, minnatdor bo'lishimiz kerak!

Xafagarchilik juda ham og'ir energiyaga ega. Siz bunday zaharli tuyg'uni kimgadir nisbatan his qilganingizda o'zingiz bilmagan holda o'z energiyangizni berib yuborasiz. Xafa bo'lmaslikka harakat qiling, ro'y bergan hodisa sizga nimanidir o'rgatishi mumkinligi haqida o'ylab ko'ring. Nima uchun u sizning hayotingizda sodir bo'ldi?

Har bir muammo – bu o'rganilmagan dars yoki o'tgan hayotingizga bog'langan karmik tugun. Agar siz muammoni hal qila olmasangiz yoki qabul qilmasangiz, yana bir yangi tugun zanjir kabi bog'lanadi. Agar buni anglab yetsangiz, "hozir va shu yerda" yashashning ahamiyatini tushunasiz.

Birovlarni ayblamang, hayotingizdagi tugun va muammolarni yechish sizga bog'liq.

Har doimgidek, tanlov o'zingizda!

Jabrlanuvchidek yashasangiz, muammoli vaziyatlarga qayta va qayta duch kelaverasiz.

Mas'uliyatni o'z zimmangizga olsangiz, rivojlanasiz.

O'z ruhingiz hamda boshqa insonlar tanlovini hurmat qiling!

Ruxsat bering sizni sevishlariga, yomon ko'rishlariga, sizdan xafa bo'lishlariga!

Alloh insonni mukammal yaratgan, shunday ekan, yomon odamlar yo'q, shunchaki yomon odatlar bor xolos.

Yaqinlaringizdan va do'st-u yoringizdan kichkina yomon odati uchun voz kechmang, kechiring, unuting...

## GURUCH VA QIYMALI "KOPTOKCHA" LAR



**Kerakli masalliqlar:** 2 bosh piyoz, 2 dona pomidor, 1 bog' selderey, 4 osh qoshiq o'simlik yog'i, 200 gr qiyma, 150 g no'xat, 200 g guruch, 3 ta tuxum, 4 osh qoshiq qirg'ichdan o'tkazilgan pishloq, 100 g qotgan non uvog'i, tuz, ta'bga ko'ra murch.

### Tayyorlanishi:

1. Piyoz maydalab to'g'raladi, pomidorlarni qaynoq suvga solib olib, to'rtga bo'linadi. Qizib turgan yog'da qiyma qovuriladi. Piyoz, pomidorni to'g'ralgan seldereyga qo'shib qovurish lozim. Oxirida no'xat qo'shib, 20 daqiqa past olovda dimlanadi.

2. Guruchni qaynatib, suvini sirqitib, bitta tuxum va bitta piyoz qo'shib aralashtiring.


3. Qiyma sovigach, guruch va qiymadan zuvalachalar yasaladi. Yasalgan zuvalachalarni avval tuxumga, keyin qotgan non ushoqlariga bulab olinadi. Zuvalachalarni qizib turgan yog'da qizartirib, ko'katlar bilan bezatib dasturxonga tortiladi.

**Yoqimli ishtaha!**

Har bir muammo – bu o'rganilmagan dars yoki o'tgan hayotingizga bog'langan karmik tugun. Ularni qo'yib yuboring!

# Hayot

## saboqlari



### YO'LDAGI VOQEA

Bir kuni yo'nalishda yuradigan taksida ketayotgan edim. Haydovchi "Yo'l haqini uzatvorinlar!" deya e'lon qildi. Yo'lovchilar birin-ketin cho'ntaklarini kovlashga tushdilar. O'ng tomonimda o'tirgan yoshgina qiz sumkchasini qayta-qayta titkilar, asabiylashar, peshonasida shoda-shoda ter tomchilari paydo bo'lgan edi. Yonidagi yigit "Nima gap o'zi?" degandek savolomuz qarab qo'ydi.

– Pulim boshqa sumkamda qolib ketibdi, endi nima qildim?! – dedi qiz qizarib.

– Mayli, xijolat bo'lmang, men to'lab yubora qolaman, – dedi yigit va: "Ikki kishiga" deya pulni uzatvordi.

– Voy, sizni ham ovora qilib qo'ydim, rahmat, katta rahmat! – qiz astoydil minnatdorlik bildirdi.

– E, arzimaydi.

Yo'lovchilarning ko'pchiligi yigitning himmatiga xayrixohlik bildirgandek mamnun qarab qolishdi. Faqat orqa qatorda o'tirgan, oldiga katta tugun qo'yib olgan semiz xotingina negadir qovog'ini uygancha xo'mrayib o'tirardi.

Navbatdagi bekatga yaqinlashganda qiz tushishga chog'lanib o'midan qo'zg'aldi. Yigitga: "Xayr, yaxshi qoling!" deya jilmayib qo'ydi. Yigit sekin bosh iring'adi. Qiz mashinadan tushishi hamon haligi semiz xotin tilga kirdi.

– Men bu qizni yaxshi bilaman. G'irt aldoqchi, firibgar.

– E, yo'g'-e?! – dedi kimdir.

– Birovni bilmasdan yomonlash yaxshimas, xola! – qo'shimcha qildi o'sha pul bergan yigit.

Qiz hali mashinadan uzoqlashmagan edi. Nogoh bekatda turgan dugonasini ko'rib qoldi. "Nozima!" dedi suyunib. So'ng mashina eshigini ochib, haydovchidan iltimos qildi:

– Shoshmay turing, hozir...

Yoniga kelgan dugonasidan shoshapisha pulni oldi-da, yigitga uzatdi.

– Mana, oling! Rahmat!

– E-e, qo'yavermaysizmi, arzimagan narsa...

– Yo'q-yo'q, oling!

Mashina sekin-asta tezligini oshira boshladi, qiz esa pulni uzatgancha yurib borar, yigit esa o'z pulini olishga iymanib qo'lini cho'za qolmas edi. Axiyri haydovchining toqati tugab, tutaqdi.

– E, bo'ldi-da endi, yoping eshikni!

Qiz noiloj pulni oldingi qatorda o'tirgan yo'lovchining tizzasiga tashlab, eshikni yopdi.

### YETIMNING QARG'ISHI

Boshlang'ich sinfda o'qirdik. Sinfimizda yoshi ham, jussasi ham bizdan kattaroq bo'lgan durkunroq bir bola bor edi. Ota-onasi kichikligida o'lib ketgan, g'irt yetim, tog'asining qo'lida qolgan. Hammamiz undan hayiqardik. U qildan qiyiq axtarib bizni urardi. Maktabga bormaydiganlarga bahona ham tayyor edi.

"Nega maktabga kelmading?!"

"Ismat uradi..."

Sinfimizda raisning o'g'li Boqivoy ham o'qirdi. Ismat bilan ikkovi tez-tez jiqqamusht bo'lar, Boqivoy: "Mana ko'rasan, otamga aytib, urdiraman!" deya po'pisa qilar, Ismat bu gapga parvo qilmasdi.

Qishloqda hamisha ot minib, qo'lida qamchi o'ynatib yuradigan raisdan hamma qo'rqardi.

Bir kuni dars payti kutilmaganda sinfimizga rais bostirib kirib qoldi. Qo'lida qamchi. Vajohati xunuk. Hayratdan so'zini yo'qotib qo'ygan muallimimizga parvo ham qilmay, to'ppa-to'g'ri orqa qatorda o'tirgan Ismatning ustiga bostirib bordida, yuz-ko'zi aralash qamchilay ketdi. Boyoqish Ismat qo'llari bilan boshini pana qilgancha dodlashga tushdi. O'g'lining o'chini obdan olgan rais g'oz yurib chiqib ketayotganda orqasidan qarg'ab qoldi: "Iloyim, yetimni urgan qo'llaring sinib, shol bo'lsin!".

Hammamiz jimib qoldik. Derazadan tashqariga tikilib qolgan muallimimizning yelkaları titrardi, u yig'layotgandi. Ismat hamon xo'rslinib aralash hiqillardi. Garchi biz undan alamzada bo'lsak-da, boyoqishga achindik. Ko'zlari olazarak, talmovsirab o'tirgan Boqivoyga yovqarash bilan o'qrayib qaradik.

Oradan yillar o'tdi. Rostdan ham yetimning qarg'ishi urdimi, rais og'ir dardga chalilib, to'shakka mixlandi. Dardi kuchaygandan kuchayib, axiyri tildan ham qoldi. O'limi oldidan rozi rizolik tilab, vasiyat ham qilolmadi.

### BOBOM

Bolalik davrimni eslaganimda ko'z oldimga Said bobom keladi. Rahmatli ko'p bolajon, yumshoqfe'l, nabiralarga mehribon odam edi. Onamning hikoya qilishicha, bobomning hovlisida o'ynab yurganimda bir gal katta ariqqa tushib ketgan ekanman. Tezob suvda oqib borib ko'yalakham ko'priknig cho'piga ilinib qoladi, shunda baqirib-chirqirab yig'lagan bo'lsam kerak, bobom kelib qolib suvdan ko'tarib oladi. "Bobong seni bir o'limdan qutqarib qolgan!" deb qo'yardi onam. Balki bobomning menga ikkinchi bor hayot in'om etishida ham bir hikmat bo'lgandir...

Onam har gal issiq non yopganda, ikkita piyozlisini durraga tugib, "Bobongga obor!" der, shunda suyunib g'izillagancha bobomnikiga chopib ketardim. Bobom nonni olarkan, alqab duo qilar, katta bog'idagi serhosil olmadan qoqib, durraga tugib berardi. Biz talashib-tortishib yeydigan bu meva qimizak olma deyilardi. Oqish-qizg'ish tuskadi, hidi, mazasi ham o'zgacha, yesangiz karsillab turadigan bunaqa olma navini keyinchalik ko'p qidirdim, ammo topolmadim. Chamasi, bobolarimiz ko'p narsani o'zlari bilan olib ketishgan, shekilli. Bobomdan keyin o'sha katta bog'ning fayzi ham qolmadi. Men bularning hammasini yuragim allanechuk orziqib, cheksiz bir armon bilan eslayman.

### SAMIMIYAT

Biz adabiy muhitning juda jo'shqin bir pallasiga guvoh bo'lgan avlodmiz. Talablik davrimizda katta yozuvchilarning yangi asarlari muallif ishtirokida muhokama qilinib turilardi. Adabiyotimizning tamal toshini qo'ygan tirik klassiklarni ana o'shanda ko'rib qolganmiz.

Kunlardan bir kuni fakultetimizda atoqli yozuvchi Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" asari muhokama qilinadigan bo'ldi. Katta auditoriya talabalar, domlalar bilan gavjum. Sochlari juda erta qirov bog'lagan, ellik yoshida saksonga kirgan mo'ysafidni eslatuvchi adib Abdulla Qahhor hay'atda qo'r to'kib o'tiribdi. Domlalarimiz – Laziz Qayumov, Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov ham shu yerda.

Muhokama juda qizg'in, maroqli o'tdi. Ezmalik qiluvchilarni Ozod aka "Nima, maxsus seminarga tayyorgarlik ko'rib kelganmisiz?" deya luqma tashlab, kuldurib turdi. Bir mahal universitet rektori, akademik Sa'di Sirojiddinova so'z berildi. O'sha qisqagina nutqning debochasi so'zma-so'z esimda qolgan.

– Abdulla aka, – deya katta adibga bir qur ko'z tashlab olgach, tortinib-qimtinibgina so'z boshladi rektor, – men yozuvchi emasman, gapga ham sizlardaqa ustamasman...

Shu laha gulduros qarsaklar yangradi. Chunki... chunki rektor nihoyatda samimiy ohangda gapirgandi. Uning qanchalar kamtarin, qanchalar sodda va ayni chog'da qanchalar buyuk inson ekani ana o'sha bir og'izgina kalomida ham ayon bo'lgan edi.

Samimiyat olqishga sazovor fazilat ekanini o'shanda bilgandim.

### KITOB

Bolalikda suyib o'qilgan kitoblarning zavqi-shavqi bo'lakcha, betakror bo'ladi, mayda tafsilotlarigacha xotirada saqlanib qoladi. Men bolalikda sevib o'qigan "Qutlug' qon", "O'qituvchi", "Qirq qiz", "Robinson Kruzo", "Gekliberri Finning boshidan kechirganlari", "So'na", "Farg'ona tong otguncha" kabi kitoblarni tez-tez eslab turaman. Ajabo, bizni kitob o'qishga deyarli hech kim jiddiyroq da'vat ham qilmasdi. Kitobga mehr-ixlos Oллоh yuqtirgan tabiiy bir istak bo'ladi, shekilli. Uzzukun kitobdan bosh ko'tarmaganimni ko'rgan rahmatli onam: "Hadeb kitobga tikilavermay, molga qarasang-chil!" deya tanbeh berib qo'yardi.

Bolalikda o'qilgan kitoblardagi g'aroyib voqealargina emas, o'sha kitoblarni qanday holatlarda o'qib chiqqanim, qanchalik ta'sirlanganim ham esimda qolgan. Masalan, "Qutlug' qon" romanining so'nggi sahifalarini, Yo'lovchining o'limi bilan bog'liq sahifalarni yum-yum yig'lab o'qiganman. Esimda, kechki ovqatga onam atala pishirgandi. O'shanda tomog'imdan hatto atala ham o'tmagan.

**Shodmon OTABEK,**  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

@Vatanparvargaxatbot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



**SHU SONNING  
ELEKTRON SHAKLI**